

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. Tar.44.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI**

IBRAGIMOV FAXRIDDIN NUSRATOVICH

**“KICHIK TIB QONUNI” ASARINING ATRIBUTSIYASI VA UNING
TIB TARIXIDAGI O‘RNI**

**07.00.02 – Fan va texnologiyalar tarixi
07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Ibragimov Faxriddin Nusratovich

“Kichik tib qonuni” asarining atributsiyasi va uning tib tarixidagi o‘rni.....3

Ibragimov Fakhriddin Nusratovich

Attribution of the “Small Canon of Medicine” and its place in the history of medicine.....33

Ибрагимов Фахриддин Нусратович

Атрибуция “Маленького канона” и его место в истории медицины63

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ.....67

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. Tar.44.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI**

IBRAGIMOV FAXRIDDIN NUSRATOVICH

**“KICHIK TIB QONUNI” ASARINING ATRIBUTSIYASI VA UNING
TIB TARIXIDAGI O‘RNI**

**07.00.02 – Fan va texnologiyalar tarixi
07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Tar812 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.beruni1@uznet.net hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziyo.net manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Surayyo Ubaydullayevna Karimova
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sanavar Bazarbayevna Shadmanova
tarix fanlari doktori, professor

Nuryog'di Iskandarovich Toshov
tarix fanlari nomzodi, dotsent v.b

Yetakchi tashkilot:

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019. Tar.44.01. Ilmiy Kengashning 2025 yil “_” _____ kuni soat __dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 79-uy. Tel.: (+998 71) 262-54-61; faks: (+998 71) 262-52-77, e-mail: beruni1@uznet.net).

Dissertatsiya bilan O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170 Toshkent shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 79-uy, tel. (+99871) 262-54-61).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “_” _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

B.A.Abdusalimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

F.Dj.Djumaniyazova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

E.Z.Nuriddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fani va madaniyati yuksalishida Markaziy Osiyo olimlarining boy ilmiy merosi katta ahamiyatga ega. Shu yurtdan yetishib chiqqan Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning yozib qoldirgan asarlari ham alohida o‘rin tutadi. Alloma hayotligidayoq uning asarlariga qiziqish katta bo‘lib, ular ko‘plab nusxalarda ko‘chirilgan. Hatto “Tib qonunlari” asari bir necha asrlar davomida Sharq va G‘arbdagi oliy o‘quv yurtlarida darslik sifatida o‘qitilgan.

O‘rta asrlarda musulmon Sharqi va Yevropada apokriflar, ya’ni mashhur olimlarga nisbat berilgan asarlar tarqalgan. Buning bir nechta sabablari bo‘lib, shulardan asosiysi yozilayotgan yoki ko‘p hollarda, ko‘chirilayotgan asarning keng tarqalishini ta’minlash, unga e’tiborni tortish va xaridorgir qilish bo‘lgan. Apokrif asarlari yuzdan ortiq bo‘lgan allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Bunday asarlarning ba’zilari alloma mavqeini tushirsa, bir xillari uning yangi asari sifatida ilmiy merosini boyitishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, Ibn Sino muallifligidagi asarlarini aniqlash uchun ularning haqiqiyliigi to‘g‘risida tadqiqotlar olib borish zarur. Bu esa allomaning sof g‘oya va qarashlarini aniqlashga yo‘l ochadi. Ibn Sinoga yozilgan apokriflar masalasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Kanada, Misr, Rossiya va Eron mamlakatlarida olib borilmoqda. Lekin bu tadqiqotlar Ibn Sinoning tibbiy asarlaridan boshqa kitoblariga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda allomaning tibbiy asarlari o‘zbek va rus tillariga ilmiy-izohli tarjima qilingan bo‘lsa-da, uning apokrif asarlari tadqiq etilmagan. Tibbiy mazmundagi apokriflar qatoriga “Kichik tib qonuni” asari ham kiradi. Shu nuqtai nazardan, uni Ibn Sinoning tibbiy asarlari bilan qiyoslab o‘rganish orqali uning muallifini aniqlashga zarurat sezilmoqda. “Kichik tib qonuni” tuzilishi va mazmuniga ko‘ra o‘rta asr tabobati haqida tasavvur beradigan asardir. Shuning uchun uning muallifi kim bo‘lishidan qat’iy nazar, uni tib bo‘yicha ilmiy asar sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, dunyodagi tabobat tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar o‘rtasida ko‘pgina bahs va munozaralarga sabab bo‘layotganligi bu asarni tadqiq qilish zaruriyatini yanada oshiradi.

Yangi O‘zbekistonda shu zaminda tavallud topgan buyuk alloma va mutafakkirlarning merosini o‘rganish, ularni jahon faniga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib berish ishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bundan tashqari, mutaxassis kadrlarni tayyorlash, qadimiy yozma manbalar fondiga ega bo‘lgan tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularda saqlanayotgan qo‘lyozma asarlarni tarjima va tadqiq etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Shu jihatdan Ibn Sinoga nisbat berilgan “Kichik tib qonuni”ning dunyo fonlarida saqlanayotgan nusxalarini aniqlash, ularni manbashunoslik va fan tarixi jihatidan tadqiq etish va mualliflik masalasini hal etish yurtimizda bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning izchil davomiyligini ta’minlaydi.

Allomalar ilmiy merosini xolisona o‘rganish vazifasi davlat rahbarining qarorlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy

yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2595-sonli, 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-126-sonli va 2020-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4668-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. "Kichik tib qonuni" asari atributsiyasi masalasi bugungi kunga qadar faqatgina zamonaviy katalog va ayrim maqolalarda qisman yoritilgan bo'lib, dunyo miqyosida hali kompleks tarzda o'rganilmagan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi bo'yicha adabiyotlar quyidagi uch guruhga ajratildi.

Birinchi guruhga "Kichik tib qonuni" asarining muallifi Ibn Sino, deb ko'rsatilgan ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin. Ikkinchisini Ibn Sino muallifligi shubha ostiga olingan nashrlar tashkil etadi. Uchinchi guruh asar muallifi Abu Ali ibn Mandavayh, deb berilgan ilmiy adabiyotlardan iborat.

Birinchi guruhga kiruvchi ilmiy adabiyotlarni ham ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi kataloglardagi ma'lumotlar bo'lsa, ikkinchisi asarning nashrlaridir. Ushbu adabiyotlarda asar uslubi va mazmunini to'la o'rganmasdan, birgina qo'lyozmalarda kelgan nomga tayanib, "Kichik tib qonuni"ning muallifi Ibn Sino, deb xulosa qilingan. Jumladan, R. Sheshen "Kichik tib qonuni" ni o'zi tuzgan katalogida Ibn Sino asari sifatida "*al-Qonun al- asg'ar*" ("O'ta kichik qonun") nomida qayd etgan¹. Lekin u mazkur asar atributsiyasi ustida maxsus tadqiqot olib bormagan va faqat kotibning qo'lyozma nomidagi ism zikriga asoslangan². "Kichik tib qonuni"ning birinchi nashri misrlik olim Ahmad Farid al-Mazidi tomonidan "*al-Qonun as-sag'ir fi-t-tibb*" ("Tabobatga oid kichik qonun") nomi ostida amalga oshirilgan³. Misrdagi ikkita qo'lyozmadan foydalanilgan ushbu nashrda asar muallifi sifatida Ibn Sino ko'rsatilgan.

Turkiyalik tabobat tarixi olimi, professor Qodirjon Keskinbora "Kichik tib qonuni" asari qo'lyozmasining faksimile va turkcha tarjimasini⁴ shuningdek,

¹ Şeşen, Ramazan. Türkiye kütüphaneleri İslâmî tıp yazmaları kataloğu: Arapça, Türkçe ve Farsça / editör: Ekmeleddin İhsanoğlu. İslam Tarih, Sanat ve Kültür Araştırma Merkezi. – İstanbul:1984. – S.73.

² Ramazon Sheshen bilan qilingan suhbadan. Istanbul. 26.02.2020 yil.

³ Abu Ali ibn Sino. *al-Qonun as-sag'ir fi-t-tibb*. Nashrga tayyorlovchi: al-Mazidi, Ahmad Farid – Bayrut: darul kutub al-ilmiyya. 2003. – 104 s.

⁴ Ibn Sina'nın Küçük Tıp Kanunu. Çevirmen Keskinbora Kadircan. – İstanbul: Bahçeşehir üniversitesi yayınları. 2013, 2015. – 173+54 s.

inglizcha⁵ tarjimasini chop qilgan. Bunda Qodirjon uni Ibn Sinoning yangi topilgan asari sifatida e'lon qilgan. Yuqoridagi nashrlarda asar muallifini aniqlash ustida maxsus tadqiqot olib borilgan bo'lsa-da, ular bir manbaning muomalaga kiritilishi jihatidan ahamiyatga ega.

Ikkinchi guruhga kiruvchi ilmiy adabiyotlarda "Kichik tib qonuni" asarining muallifi noma'lum yoki Ibn Sino ekanligi shubha ostiga olingan. Jumladan, misrlik olim Jorj Qanavatiy uni muallifi noma'lum asarlar qatorida sanaydi⁶. Eronlik tadqiqotchi Yahyo Mahdaviy esa "Kichik tib qonuni"ni Ibn Sinoga nisbat berilgan asarlar qatoriga kiritgan⁷.

2021 yil Toshkentda "Kichik tib qonuni" asari "Ibn Sinoga nisbat berilgan "Kichik tib qonuni"" nomida arab tilidan o'zbek tiliga ilmiy izohli tarjima qilinib, nashr etilgan⁸. Mazkur nashrda "Kichik tib qonuni" ikki muallif: faylasuf va tabib sifatida Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino va isfahonlik tabib Abu Ali ibn Mandavayhga nisbat berilganligi va asar muallifi Ibn Mandavayh ekanligi isbotlangan.

Misrlik olim al-Mazidi nashri asosida "Kichik tib qonuni" Ibn Sinoga nisbat berilgan asar sifatida "*Qonuni kuchek mansub ba shayxurrais Abu Ali Husayn ibn Abdullo Puri Sino*" ("Shayxurrais Abu Ali Husayn ibn Abdullo ibn Sinoga mansub "Kichik tib qonuni") nomida fors tiliga tarjima va nashr qilingan⁹. Asar Al-Mazidi nashrida "Ibn Sinoning Kichik tib qonuni" nomida kelgan bo'lsa-da, tarjimon tomonidan Ibn Sinoga nisbat berilgan asar sifatida e'lon qilingan. Asarning mazmuni va uslubi Ibn Sinoga mos kelmaganligi bunga sabab bo'lgan.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan "Kichik tib qonuni" muallifini aniqlash masalasi ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Germaniyalik olim Rafaela Viyt "Ibn Sinoga nisbat berilgan Kichik tib qonuni" nomli maqolasida bu asarning Ibn Sino yozganligiga shubha bildirgan¹⁰.

Uchinchi guruhdagi ilmiy adabiyotlarda "Kichik tib qonuni" muallifi sifatida Ibn Mandavayh ko'rsatilgan. Jumladan, misrlik olim Ahmad Abdulboqiy Husayn ushbu asarni Ibn Mandavayh nomi bilan tanilgan isfahonlik tabib Ahmad ibn Abdurrahmon al-Isfahoniy (vaf.410/1019)ning "*al-Kifoya fi-t-tibb*" ("Tabobatda yetarli kitob") asari nomida chop etgan¹¹.

⁵ Ibn Sina, The Little Qanun of Ibn Sina, ed. Keskinbora Kadircan Hidir, – Berlin: Peter Lang GmbH, Internationale Verlag der Wissenschaften, 2020. – 218 p.

⁶ Anawati G. Essai de bibliographie Avicennienne. – Le Caire: al-Maaref, 1950. – P.140.

⁷ Mahdavi Yahya, Bibliographie d'Ibn Sina. – Tehran: Imp. Bank Melli Iran, 1954. – P.259.

⁸ Ibn Sinoga nisbat berilgan Kichik tib qonuni. Arab tilidan tarjima, tanqidiy matn va ko'rsatkichlar mualliflari Abduhalimov B., Ibragimov. F. –Toshkent: Fan, 2021. – 187 s.

⁹ *Qonuni kuchek mansub ba shayxurrais Abu Ali Husayn ibn Abdullo Puri Sino*. Bargardon Livoiy Shokir. – Tehron: 1388/2009. – 108 s.

¹⁰ Veit Raphaela. The Smaller Canon of Medicine (al-Qanun al-sagir fil-tibb) Ascribed to Avicenna. Philosophy and Medicine in the Formative Period of Islam //. – London: Warburg Institute Colloquia № 31, 2017. P.269 – 280.

¹¹ Ibn Mandavayh. *al-Kifoya fi-t-tibb*. Nashrga tayyorlovchi: Abdulboqiy Ahmad Husayn – Amman: Noor Publishing. 2017 – 127 s.

Eronlik tadqiqotchilar tomonidan ham “Kichik tib qonuni” muallifini aniqlash xususida maqola e’lon qilingan¹². Maqola mualliflari o’rta asr bibliografik ma’lumotlari hamda “Kichik tib qonuni”ning Eron va Irlandiyaning Chester Bitti kutubxonasidagi qo’lyozma nusxalari asosida mazkur asarning muallifi Ibn Mandavayh, degan xulosaga kelganlar. Lekin ishda “Kichik tib qonuni”ning boshqa qo’lyozmalari, xususan, asar Ibn Sinoga nisbat berilgan nusxalar jalb etilmagan¹³. Boshqa eronlik tadqiqotchilarning maqolasida¹⁴ ham “Kichik tib qonuni” asari va uning tuzilishi haqida so’z yuritilgan bo’lsa-da, tadqiqotga asarning barcha qo’lyozmalari jalb qilinmagan. Bundan tashqari, tadqiqotda ayrim noto’g’ri xulosalarga ham kelingan. Jumladan, doktor Muhammad Sadrning nusxasini qadimiy va u melodiy 1113 yil 25 noyabrda ko’chirilgan, deb ko’rsatilgan¹⁵. Ammo kolofondagi ma’lumotga ko’ra, nusxa 857/1453 yili kitobat qilingan.

Tadqiqotchilar yuqoridagi nashrlarida imkon doirasida qo’lga kiritgan manbalardan foydalanganlar. Vaholanki, asarning atributsiyasini aniqlashda uning nusxalarini to’plash, o’rganish, shuningdek, uning matnini Ibn Sino tibbiy asarlari bilan solishtirish talab etiladi.

Dissertatsiyada qo’lyozmalar, tarjima va tadqiqotlardagi ma’lumotlar, ularda yo’l qo’yilgan uslubiy va semantik kamchiliklar tahlil qilingan. Bundan tashqari, mavzu bilan nazariy jihatdan yaqin manba va adabiyotlar ham o’rganilgan¹⁶.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi: dissertatsiya O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Sharq xalqlari fani va madaniyati” bo’limining ilmiy tadqiqot mavzulari hamda AM-PZ-2019062035: “O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi

¹² Shekoofeh Sharififar, Marvast Mohammad Ali Salmani, Aghda Reza Afkhami, Tafazoli Vahid. The Book 'Al-Qanon al-Saghir' in the Science of Medicine and its Author!// Journal of Medical History. – Tehran: 2022. 14(47): 30

¹³ “Kichik tib qonuni” asari qo’lyozmalarining umumiy soni hozirgacha 13 tani tashkil etdi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobining birinchi paragrafidagi ular haqida batafsil ma’lumot berilgan.

¹⁴ Ghasemi H, Sharififar Sh, Azari H, Sharififar Sh. The Structure and Content Analysis of ‘Al-Qanon al-Saghir’: A Descriptive Analysis. Res Hist Med. 2023; 12(3): 229 –242.

¹⁵ O’sha joyda. – B.233.

¹⁶ Каримов У.И. Неизвестное сочинение ар-Рази “Книга тайны тайн”.– Ташкент: Фан, 1957; Ҳикматуллаев Ҳ. Ибн Синонинг “Юрак дорилари рисоласи. – Тошкент: Фан, 1966; O’sha muallif. Абу Бакр Розий ва унинг шогирди ёзиб қолдирган касалликлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1974; Абу Али ибн Синонинг соғлиқни сақлашга доир рисолалари. Таржимон Талабов Э. – Тошкент: Фан, 1978; Абу Али ибн Сино. Шеърлар ва тиббий дoston/ Тузувчи-таржимон Ирисов А. – Тошкент: Фан. 1981; Каримов У.И. “Словар медицинских терминов” Абу Мансура ал-Кумри. // Материали по истории и истории науки. – Ташкент: Фан, 1991; Ҳасанов М, Каримова С. Навоий даври табобати. – Тошкент: Медисина, 1991; Абу Али ибн Сино. Тиббий ўғитлар. Тузувчилар Каримов У.И., Каримова С.У. – Тошкент: Меҳнат, 1991; Ҳикматуллаев Ҳ. Шарқ табобати. – Тошкент: Мерос, 1994; Ullmann Manfred. Islamic Medicine. Edinburg University Press.1997. Каримова С.У. IX–XI аср кимё ва доришнослик фанлари тараққиётида Марказий Осиё олимларининг ўрни. — Тошкент: 2002; Before and after Avicenna: Proceedings of the First Conference of the Avicenna Study group. Edited by Reisman David C. with the assistance of al-Rahin, Ahmed H. Brill, Leiden • Boston. 2003; Interpreting Avicenna: Science and Philosophy in Medieval Islam. Proceedings of the Second Conference of the Avicenna Study Group. Edited by McGinnis Jon with the assistance of Reisman David C. Brill, Leiden – Boston, 2004; Pormann Peter E., Savage - Smith, Emilie. Medieval Islamic Medicine. The American University in Cairo Press. – Cairo, 2007; Avicenna and his legacy . A Golden Age of Science and Philosophy. Edited by Langermann, Y. Tzvi. – Belgium: Brepols Publishers n.v., Turnhout, 2009.

Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi manbalarini raqamlashtirish va ilmiy nashr qilish” nomli loyiha bilan bog‘liq.

Tadqiqot maqsadi. “Kichik tib qonuni” muallifini hamda asarning tib tarixidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

- Ibn Sino “Tib qonunlari”ga yozilgan qisqartmalarni aniqlash va ularni tasniflash;
- Asarning qo‘lyozma nusxalarini yig‘ish va ularning manbashunoslik tahlilini amalga oshirish hamda o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatish;
- “Kichik tib qonuni” bilan bog‘liq tadqiqotlardagi chalkashliklarga oydinlik kiritish va asarning muallifi muammosini hal etish;
- Ibn Mandavayhning “Kichik tib qonuni” asari haqida to‘liq ma’lumot berish;
- Asardagi tabobat masalalarini tahlil qilish, ularni Ibn Sinoning “Tib qonunlari” va boshqa tibbiy asarlari bilan qiyoslash hamda asarning tibbiy manba sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatish.

Tadqiqotning ob’yekti: o‘rta asrlarda “Qisqartma”, “Qonuncha” va “Kichik tib qonuni” shaklida yozilgan tibbiy manbalar.

Tadqiqot predmetini “Kichik tib qonuni” asari atributsiyasi va uning tibbiy manba sifatidagi ahamiyati tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: tadqiqotda tarixiylik, xronologik, muammoviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil va analiz-sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘rta asrlarda Ibn Sinoning “Tib qonunlari”ga o‘nta “Qisqartma” va “Qonuncha”lar yozilgani, bu turdagi asarlar “Tib qonunlari”ning barcha yoki ayrim qismlariga tuzilgani, ularning O‘zbekiston, Iroq, Turkiya, Eron, Suriya va Misr kabi mamlakatlar hududida XI–XXI asrlar oralig‘ida yozilganligi aniqlangan. Bu esa “Tib qonunlari”ning katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega asar bo‘lib, mazkur hududlardagi tabobat ilmining rivojiga ta’sir qilganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar natijasida mazkur “Kichik tib qonuni”asarning muallifi kunyasi Abu Ali bo‘lgan Abdurrahmon ibn Mandavayh ekanligi isbotlangan. Uning tanilgan tabib bo‘lgani 50 ga yaqin asar yozib, ulardan tabobatga oid 18 tasi yetib kelgani, tabobat tarixida ko‘z tabibi va yunon tabibi Galen (vaf. 216) asarlarining sharhlovchisi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lganligi manbalar asosida ochib berilgan.

“Kichik tib qonuni”ning qo‘lyozmalaridagi qayd va muhrlarni o‘rganish orqali bu asar mazmuniga ko‘ra foydalanishga qulay, amaliy qo‘llanma shaklida yozilganligi, unga qiziqish yuqori bo‘lgani, ya’ni undan nafaqat oddiy xalq, balki jamiyatning turli tabaqalari: sultonlar, mashhur kitobdorlar, falakiyot sohasi vakillari va tabiblar foydalanganligi dalillangan.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” va Ibn Mandavayhning “Kichik tib qonuni”ni solishtirish natijasida tomir urishi, peshobdan dalil olish kabi tashxis usullarida, shuningdek, ovqatlanish tartibi, qo‘llangan dorilar va organizmni tozalash yo‘llari kabi terapevtik vositalarda farq borligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. “Kichik tib qonuni”ga oid dunyoning turli mamlakatlaridagi qo‘lyozmalar hamda ilmiy tadqiqotlar jamlanib, yaxlit ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.

“Kichik tib qonuni”ning Shokir Livoiy tomonidan amalga oshirilgan forscha tarjimai, Qodirjon Keskinboraning turk va ingliz tillariga qilgan tarjimalarida va nashrlarida yo‘l qo‘yilgan uslubiy, imloviy va semantik xatolar tuzatildi.

“Kichik tib qonuni”ning Turkiyaning Sulaymoniya, Isparta, Boyazid kutubxonalari, Irlandiyaning Chester Bitti kutubxonasi, Ispaniyaning Eskorial, Misrning Arab qo‘lyozmalari instituti va Erondagi Doktor Muhammad Sadarning shaxsiy fondlaridagi qo‘lyozmalari to‘planib, asarning tanqidiy matni nashr qilindi. Natijada, tabobat tarixiga oid yangi bir manba ilmiy muomalaga kiritildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘rta asrlarning bibliografik manbalari hisoblangan Ibn al-Qiftiy (1172–1248)ning “*Tarix al-hukamo*”, Ibn Abi Usaybi‘a (1203–1270)ning “*Uyun al-anbo fi tabaqot al-atibbo*”, Salohiddin as-Sofadiyning (1296–1363) “*al-Vofiy bi-l-vafoiyot*”, Kotib Chalabiy (1609–1657)ning “*Kashf az-zunun ‘an asomi-l-kutub va-l- funun*”, Ismoil Pasha al-Bag‘dodiy (vaf.1920)ning “*Izoh al-maknun*” va boshqa manbalardan foydalanilgan. Bulardan tashqari, mavzuga aloqador tabobat tarixiga oid zamonaviy nashrlar va tadqiqotlardan foydalanish jarayonida tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar ma’nosini va dorishunoslikka oid istilohlarni aniqlashda turli lug‘atlardan istifoda etildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tarixiy manbashunoslik va fan tarixi sohalarida tan olingan ilmiy yondashuv va usullar asosida “Kichik tib qonuni”ning 13 ta qo‘lyozmasi o‘rganilgan va ularga doir yangi ma’lumotlar taqdim etilgan.

Ibn Sino ilmiy merosining kam o‘rganilgan apokriflar muammosidagi bir masala o‘z yechimini topgan.

Mavzuga oid arab, fors, ibroniy va turkiy tillardagi qo‘lyozma manbalar va kataloglar asosida Ibn Sino apokrif asarlarining soni yuzdan ortiqligi aniqlangan.

Dissertatsiya natijalaridan “Musulmon Sharqi tabobati tarixi”, “Markaziy Osiyoda ilm-fan tarixi” kabi to‘plam, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda hamda Markaziy Osiyo allomalariga bag‘ishlangan o‘quv kurslarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot jarayonida qo‘lga kiritilgan natijalar asosida:

o‘rta asrlarda Ibn Sinoning “Tib qonunlari”ga o‘nta “Qisqartma” va “Qonuncha”lar yozilganligi, bu turdagi asarlar “Tib qonunlari”ning barcha yoki ayrim qismlariga tuzilgan bo‘lib, ularning O‘zbekiston, Iroq, Turkiya, Eron, Suriya va Misr kabi mamlakatlar hududida yaratilganligi haqidagi xulosalar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan buyurtma asosida tayyorlangan “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlari ensiklopediyasi” nomli kitob mazmuniga singdirilgan. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 15 dekabr №02/556 ma’lumotnomasi). Bu esa Ibn Sinoning “Tib qonunlari” mazkur hududlardagi tabobat

rivojiga ta'sir qilgani va bu ta'sir asarga turli davrlarda yozilgan "Qisqartma" va "Qonuncha"larda aks etganini ko'rsatadi.

"Kichik tib qonuni" muallifi Ibn Sino, deb ko'rsatilgan nashr va tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning xulosalari noto'g'ri ekanligi, mazkur asarning muallifi kunyasi Abu Ali bo'lgan Abdurrahmon ibn Mandavayh ekanligi, "Kichik tib qonuni"ning qo'lyozmalaridagi qayd va muhrlarni o'rganish orqali bu asar mazmuniga ko'ra foydalanishga qulay, amaliy qo'llanma shaklida yozilganligi, unga qiziqish yuqori bo'lgani, ya'ni undan nafaqat oddiy xalq, balki jamiyatning turli tabaqalari foydalanganligi, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" va Ibn Mandavayhning "Kichik tib qonuni"ni solishtirish natijasida ayrim tashxis va terapevtik usullarda farq borligi haqidagi xulosalar O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Xalq mulki" ko'rsatuvida e'lon qilingan. (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DUKning 2021-yil 05 oktyabrdagi № 02-Yo-2444-son ma'lumotnomasi). Natijada bugunga qadar faqat Ibn Sino qalamiga mansub asarlarga emas, balki unga nisbat berilganlari ham borligi va tadqiqot natijasida ularning soni bittaga kamaygani, shu bilan birga bu asar tibbiy manba sifatida ham ahamiyatga ega ekanligi haqida xabar berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xorijiy va 4 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 2 ta manba nashri, 1 ta katalog, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta va xorijiy jurnallarda 1 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 122 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining utuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalar asosida ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotning amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan nashlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Kichik tib qonuni**" va uning o'rganilish tarixi" deb nomlangan birinchi bobining "*Musulmon Sharqi tabobatida "Qisqartma" va "Qonuncha" lar yozish amaliyoti*" nomli birinchi paragrafida "*al-Qonun fi-t-tibb*" ("Tib qonunlari") asari mashhur asar bo'lgani, besh kitobdan tuzilgan bu ensiklopediyaning hajmi kundalik amaliyotda ishlatish uchun kattalik qilgani sababli undan foydalanishni qulaylashtirish maqsadida XI asrdan unga qisqartmalar yozish an'anasi boshlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Muhammad ibn al-Iloqiy (vaf. 1068), Abulxayr ibn Masihiy al-

Arqiziyaqun (vaf.1193), Ibn Raqiqa (vaf.1237), Abdulhodiy al-Jiloniy (vaf.1243), Abdulvohid al-Labudiy.(vaf. 1271), Ibn an-Nafis (vaf. 1288), Faxriddin Xo‘jandiy (XIII asr), Umar al-Chag‘miniy (XIV asr), Dovud ibn Umar Antokiy (vaf. 1599), Hakim Muhammad Sodiqlarning “Tib qonunlari”ga yozgan “Qisqartma” va “Qonuncha”lari haqida ma’lumotlar xronologik tartibda berilgan. “Tib qonunlari”ning birinchi kitobi tabobat ilmining nazariy va amaliy asoslariga bag‘ishlanib, “Kulliyot”deb nomlangan. Davolovchi tabiblardan ushbu “Kulliyot” qismini bilish talab etilgan. Shu sababli “Qisqartmalar” asosan birinchi kitobga tuzilgan.

Al-Iloqiy “Tib qonunlari”ning birinchi kitobiga “*al-Fusul al-Iloqiyya fi kulliyot at-tibb*” (“Tib kulliyotidan olingan al-Iloqiy fasllari”)¹⁷ hamda uchinchi va to‘rtinchi kitobiga “*Muolajot al-Iloqiy*” (“Iloqiyning davolash [usullari]”) nomli qisqartmalar tuzgan¹⁸. Birinchisi tabobat ilmining nazariy asoslari, hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida bo‘lib, al-Iloqiyning boshqa asarlaridan mashhur bo‘lgan¹⁹.

Abulxayr ibn Masihiy al-Arqiziyaqun “Qonun”ning birinchi kitobi – kulliyotini qisqartirib, “*Kitob al-iqtidob*” (“Muxtasar kitob”) nomli asar yozgan va yana ushbu qisqartmani qisqartirib, “*Muxtasar intihob al-iqtidob*” (“Muxtasardan tanlab olingan qisqartma”) nomli risola yozgan²⁰.

O‘tmishda fanning turli sohalariga oid asarlarni nazmda yozish ham keng an’anaga ega edi. Shu boisdan nasriy tabobat bilan bir qatorda nazmiy tabobat paydo bo‘ldi. She’rni nasrga qaraganda esda saqlab qolish oson bo‘lgani uchun ko‘proq darslik sifatida yozilgan risolalar shu tarzda tuzilgan. Shu nuqtai nazardan “Tib qonunlari”ning birinchi kitobiga nazmda tuzilgan “Qisqartmalar”ni ham kuzatish mumkin. Ana shunday nazmiy qisqartma tuzgan mualliflardan biri Ibn Raqiqa edi. U ko‘z tabibi va jarroh sifatida tanilgan, o‘zining “*Lutf ac-soil va tuhaf al-masoil*” (“So‘rovchining lutfi va sovg‘a qilingan masalalar”) asarida Hunayn ibn Ishaq (808 –873)ning “*Kitob al-masoil*” va Ibn Sino “*Kulliyot*”ining ayrim qismlarini aruzning rajaz bahrida nazmgga solgan²¹.

Keyingi davrlarda al-Jiloniy va al-Labudiy tomonidan “*Kulliyot*” ga tuzilgan “Qisqartma”lari ham keng tarqalgan. Abdulhodiy Al-Jiloniy “Qonun”ning birinchi kitobiga qisqartma tuzib, uni “*Ixtisor kulliyot al-Qonun*” (“Qonunning birinchi kitobi qisqartmasi”) deb nomlagan²². Abdulvohid al-Labudiy tomonidan “Tib qonunlari”ning birinchi kitobiga yozilgan qisqartma “*Ixtisor kulliyot al-Qonun*” (“Qonun kulliyoti qisqartmasi”) deb nomlangan.

“Tib qonunlari”ning birinchi kitobidan tashqari barcha qismini qamrab olgan “Qisqartma” lar ham bo‘lgan. Ibn an-Nafisning qisqartmasini ana shunday asarlar

¹⁷ Zillur Rahman Sayed. Commentators and translators of Ibn Sina’s Canon of Medicine, translated from the Urdu by Zakariya Virk. –Aligarh: Muslim Educational Press, 2014. P. 36–37.

¹⁸ O‘sha joyda. B. 36–37.

¹⁹ Hoji Xalifa o‘zining *Kashf az-zunun* asarida “Iloqiy qisqartmasi”ga yozilgan sharhlarning ro‘yxatini keltirgan. Qarang: Haji Khalfah. *Kashf al-Zunun ‘an Asami al-Kutub wa al-Funun*. – London: 1865. Vol. II. P.1266.

²⁰ Zillur Rahman Sayed. Commentators and translators of Ibn Sina’s Canon of Medicine, translated from the Urdu by Zakariya Virk. – Aligarh: Muslim Educational Press, 2014. P. 44–45.

²¹ al-Safadi, Halil b. Aybak al-Safadi. *Kitab al-Wafi bi-l-wafayat*. – Beirut: *Dar ihya’ al-turas al-‘arabi*, 1962. vol.XIX. – P. 208.

²² Ibn Abi Usaybi‘a. *‘Uyun al-anba’ fi tabaqat al-atibba*. – Beirut: *Dar maktaba al-hayat*, 2012. – P. 647

qatoriga kiritish mumkin. Ibn an-Nafis (1207 – 1288) Damashqda tugʻilib, Qohirada yashab ijod qilgan, Ibn Sino ilmiy merosini ommalashtirib, uni musulmon Sharqi madrasalariga darslik sifatida olib kirgan²³. Uning arab tilida yozilgan “*Muʼjaz al-Qonun*” (“Qonun qisqartmasi”) asari “Tib qonunlari”ning anatomiyadan tashqari barchi qismlarini oʻz ichiga olgan qisqartma boʻlib, Ibn an-Nafisning mashhur asarlaridan hisoblanadi. “*Muʼjaz al-Qonun*”ning koʻp nusxalari bizgacha yetib kelgan²⁴.

“Qisqartma”lar keng geografik hududda yozilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo hududidan ham ikki muallif “Qisqartma”ma yozgan. Birinchisi Faxriddin Xoʻjandiy (XIII asr) “Qonun”ni “*Tanqih xalq al-maknun*” (“Yashirin narsalarni tuzatish”) nomi ostida qisqartirgan. Keyinchalik bu qisqartmasiga qoʻshimchalar qilib, uni “*at-Talvih ila asror al-tanqih*” (“Tanqih sirlariga qoʻshimcha”) deb nomlagan²⁵.

Ikkinchisi Sharafiddin Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chagʻminiydir. U XIV asrda yashagan xorazmlik tabib olimlardan biri boʻlib, Koʻhna Urganch yaqinidagi Chagʻmin qishlogʻida tugʻilgan. Uning nomi tabobat tarixida “*Qonuncha fi-tibb*” (“Tabobatda oid qonuncha”) asari bilan maʼlum²⁶. Bu muallif haqida manbalarda maʼlumotlar kam saqlangan. Chagʻminiyning bu asari tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha oʻrganilmagan. Bundan tashqari, zamonaviy oʻzbek tiliga ham tarjima qilinmagan. “*Qonuncha fi-tibb*” tabobatning nazariya va amaliyotini oʻz ichiga olgan boʻlib, oʻn maqoladan iborat.

“Tib qonunlari”ga qisqartma yozgan mualliflardan yana biri Shayx Dovud ibn Umar Antokiydir. U Kichik Osiyoning Onadoʻli hududlarida va Damashq shaharlariga sayohat qilib, oxirida Misrda yashab qolgan. “*Zohiriya*” madrasasida dars berish bilan birgalikda Qohiradagi “*al-Bimoriston*”da tabiblik qilgan. U “Tib qonunlari”ni qisqartirib, “*Muxtasar al-Qonun*” (“Qonun qisqartmasi”) asarini yozgan.

Hakim Muhammad Sodiq nomli tabib ham “Qonun”ning birinchi kitobini qisqartirib, “*Iyjoz al-Qonun*” (“Ixcham Qonun”) nomli qisqartma tuzgan²⁷.

Oʻzbek olimlari tomonidan ham “Tib qonunlari”ning besh kitobidan qiziqarli boʻlimlar tanlab olinib, rus tilida bir jildli qisqartma tuzilgan²⁸. Bundan tashqari, 1992–1993 yillarda Toshkentda “Qonun”dan ayrim qismlar tanlab olinib, uch jildli saylanma ham nashr etilgan. 1991 va 2014 yillarda Toshkentda salomatlikni saqlash va inson tugʻilgan kunidan umrining oxirigacha amal qilishi lozim boʻlgan tadbirlar xususidagi oʻgʻitlar va oʻquvchida tabobat haqida tasavvur uygʻotish

²³ Endress, Gerhard, Reading Avicenna in the Madrasa. Intellectual Genealogies and Chains of Transmission of Philosophy and the Science in the Islamic East // Arabic Theology, Arabic Philosophy. – P. 371–422.

²⁴ Qarang: Şeşen, Ramazan. Türkiye kütüphaneleri İslâmî tıp yazmaları kataloğu : Arapça, Türkçe ve Farsça / editör: Ekmeleddin İhsanoğlu. İslam Tarih, Sanat ve Kültür Araştırma Merkezi. – İstanbul: 1984. – S.95–97.

²⁵ Haji Khalfah. *Kashf al-Zunun ‘an Asami al-Kutub wa al-Funun*. – London: 1865. Vol 1. – P.341.

²⁶ Taniqli fan tarixchisi, tarix fanlari doktori Mahmudjon Hasanov bu asarni Chagʻminiy Ibn Sino “Tib qonunlari”dan emas, balki boshqa tibbiy asarlardan tanlab olib tuzgan, degan fikrdalar. Bunga asos qilib, Chagʻminiyning ..”men bu kitobni “mutaqaddimun”, yaʼni qadimgi olimlarning kitoblaridan saylab oldim”, degan fikrini dalil qilib keltiradilar.

²⁷ Oʻsha joyda. – B. 121.

²⁸ Abu Ali ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki, izbranniye razdeli./ Sostaviteli: Karimov U. I., Xurshut Enver. – Tashkent: Fan, 1985. – 768 s.

maqsadida birinchi kitobdagi tabobatning nazariy asoslariga bag‘ishlangan ayrim boblari jamlanib, “Tibbiy o‘gitlar” nomli risola nashr etilgan²⁹.

“Tib qonunlari”ga qisqartmalar tuzish hozirgi asrimizda ham davom etmoqda. Anqaradagi Yildirim Boyazid Universiteti Tib fakulteti professori Umar Anlar (Ömer Anlar) “Tib qonunlari”ning barcha qismlarini qisqartirib, bir kitob holiga keltirgan³⁰.

“*Kichik tib qonuni*” asarining tarkibiy tuzilishi” nomli ikkinchi paragrafda asarning tarkibiy tuzilishi ochib berilgan³¹. “Kichik tib qonuni” asari tabobat ilmining nazariy va amaliy qoidalarini ixcham shaklda bayon qiluvchi asardir.

Kitob kirish qism, 10 maqola va 105 bobdan iborat.

Birinchi maqola yetti bobdan iborat bo‘lib, ularda insonning yaratilishi, tana tuzilishi, tib ilmining qismlari, tomir urishi va siydikdan dalil olish hamda tanani chiqindilardan tozalash haqida so‘z boradi.

Ikkinchi maqola dorivorlar, ovqat va ichimliklar, kiyimlar va ularning quvvatlari haqida bo‘lib, yigirma bobdan iborat.

Uchinchi maqola o‘n bobdan tashkil topgan va sog‘likni saqlash, homiladorlik tadbiri hamda bola tarbiyasiga bag‘ishlangan.

To‘rtinchi maqolaning o‘n sakkiz bobida boshdan ko‘krak sohasigacha bo‘lgan kasalliklarni tashxislash va ularni davolash usullari bayon qilingan.

Beshinchi maqola tomoq kasalliklari haqida bo‘lib, to‘rt bobda yo‘tal, tumov, zotiljam, ko‘ksoy, xafaqon kasalliklariga tashxis qo‘yish va davolash usullari hamda qon tuflash haqida so‘z yuritiladi.

Oltinchi maqola qorin sohasida paydo bo‘luvchi kasalliklar va ovqat hazm qilish a‘zolari haqida bo‘lib, o‘n to‘rt bobga bo‘lingan.

Yettinchi maqola tanosil a‘zolari haqida, yetti bobni o‘z ichiga oladi.

Sakkizinchi maqola bir bobdan iborat bo‘lib, niqris, quymich asabi va bo‘g‘im og‘riqlarini tashxislash va davolashga bag‘ishlangan.

To‘qqizinchi maqola teri yuzasida paydo bo‘luvchi kasalliklar, tomirdan qon olish va hijoma xususida bo‘lib, o‘n olti bobdan iborat.

O‘ninchi maqolaning yetti bobida isitmalar bayon qilingan³².

O‘n maqola va 105 bobdan iborat bu asar o‘zining qisqa va mazmunan boyligi tufayli o‘rta asrlarda oddiy o‘quvchi va amaliyotchi tabiblar tomonidan keng foydalanib kelingan.

“*Asarning o‘rganilish tarixi*” nomli uchinchi paragrafda mavzuning tarixshunosligi masalalari ko‘rib chiqilib, ilmiy adabiyotlar uch guruhga bo‘lib o‘rganilgan.

Birinchi guruhga “Kichik tib qonuni” asari muallifi Ibn Sino, deb ko‘rsatuvchi ilmiy adabiyotlar kiritilgan. Bu asosan “Kichik tib qonuni”ning arab tilidagi nashri, faksimilesi, turk va ingliz tillaridagi tarjimalaridir.

²⁹ Abu Ali ibn Sino. “Tibbiy o‘gitlar”./ Tuzuvchilar: Karimov U, Karimova S. – Toshkent: Fan, 1991. –191 b.

³⁰ Ibn-i Sina. el-Kanun fi’t Tibb. Çevirmen: Anlar Ömer. – Ankara. 2019. – 572 s.

³¹ Asarning tarkibiy tuzilishini yoritishda quyidagi nashrga tayanilgan: “Ibn Sinoga nisbat berilgan Kichik tib qonuni”. Arab tilidan tarjima, tanqidiy matn va ko‘rsatkichlar mualliflari Abduhalimov B., Ibragimov. F. – Toshkent: Fan, 2021. – 188 b.

³² al-Mazidining 2003 yildagi Bayrutdagi nashrida o‘ninchi maqola 6 bobdan iborat.

“Kichik tib qonuni”ning birinchi nashri 2003 yilda misrlik tadqiqotchi Abulhasan Ahmad Farid al-Mazidi tomonidan amalga oshirilgan³³. Al-Mazidi “Kichik tib qonuni”ni tadqiq va nashr qilishda Qohiradagi Arab qo‘lyozmalari institutidagi ikkita qo‘lyozmadan foydalangan. Birini “ح” (*ha*) va ikkinchisini “ع” (*ayn*) nusxa deb nomlagan. U, birinchi navbatda, asarning qo‘lyozma muqovasida “*Muxtasar al-qonun*” deb yozilgan va to‘liq hisoblangan “*ha*” nusxadan nasx xatida ko‘chirgan. So‘ngra buni “*ayn*” nusxa bilan solishtirgan. Masalan, keyingi nusxa oldingisidan tushunarli xatda sakkizinchi hijriy yili qadimiy andalusiy xatida ko‘chirilgan, hajmi yigirma varaqdan iborat. Al-Mazidi ushbu ikki nusxani solishtirib, asarning tanqidiy matnini tayyorlagan. Uni o‘quvchiga tanitish maqsadida kitobga muqaddima yozib, unda asar muallifining³⁴ tarjimai holi va yozgan asarlarining ro‘yxatini bergan.

Al-Mazidi fikricha, Ibn Sino “Kichik tib qonuni” asarini o‘sha davrdagi amirlardan birining tabobat qoidalarini o‘zida qisqacha jamlagan, ortiqcha cho‘zishdan xoli bo‘lgan bir kitob yozish talabiga binoan yozgan³⁵. Ammo al-Mazidi bu fikrni qaysi manbaga tayanib aytganini keltirmagan. Faqatgina uni nashr uchun foydalangan qo‘lyozmalardan olgan bo‘lishi mumkin, deb faraz qilish mumkin.

Prof. Q. Keskinbora “Kichik tib qonuni” asarini o‘rganish va uni ilmiy muomalaga olib kirish borasida katta ishlarni amalga oshirgan. U “Kichik tib qonuni” asari faksimilesi va turkcha tarjimasini 2013 yilda, qayta turkcha va inglizchaga tarjimasini esa 2015 yilda chop qilgan³⁶. Q. Keskinbora 2020 yilda bu asarni ingliz tilida ham nashr etgan³⁷. Tarjimon turkcha va inglizcha tarjimada kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa-da, asarning umumiy mazmunini aks ettirishga erishgan.

Ikkinchi guruh “Kichik tib qonuni” Ibn Sinoga nisbat berilgan asar sifatida amalga oshirilgan nashrlarni tashkil etadi.

Ibn Sino mashhur shaxs bo‘lganligidan, o‘z davridan hozirga qadar uning asarlariga katta qiziqish bilan qaraladi. Ayniqsa, uning yangi asari topilsa va nashr qilinsa, boshqa yurtdagi tadqiqotchilar bu asarni o‘z tillarida o‘qishni istaydilar. Shu maqsadda yuqoridagi al-Mazidi nashri asosida eronlik olim Shokir Livoiy uni fors tiliga tarjima qilgan³⁸. E’tiborli jihati shundaki, ham tarjimonda, ham muharrirda Ibn Sino mazkur asar muallifi ekanligiga shubha uyg‘ongan. Ular “Kichik tib qonuni” matnini Ibn Sinoning “Tib qonunlari” bilan solishtirib, bu ikki asar o‘rtasida uslubiy va matn jihatidan mos kelmaydigan o‘rinlar mavjudligini

³³ Ibn Sino. *al-Qonun as-Sag‘ir fi-t-tib*. . al-Mazidi, Abulhasan Ahmad Farid.. – Bayrut– Livan:*Dar al- kutub al- ilmiyya*. 2003. – 104 s.

³⁴ Al-Mazidi asar muallifini Ibn Sino deb biladi. U o‘z nashrida asar nomini *al- Qonun as- Sag‘ir fi-t-tibb* (“Kichik tib qonuni”) shaklida bergan.

³⁵ Ibn Sino. *al-Qonun as-Sag‘ir fi-t-tib* . Nashr qiluvchi: al-Mazidi, Abu-l-Hasan Ahmad Farid.. – Bayrut – Livan.:*Dar al- kutub al- ilmiyya*. – B.4

³⁶ Ibn Sina’nın Küçük Tıp Kanunu. Çevirmen Keskinbora Kadircan..– Istanbul: Bahçeşehir üniversitesi yayınları. 2013, 2015. – 173+54 s.

³⁷ Ibn Sīnā. *The Small Qanun of Ibn Sina*. Ed. Keskinbora Kadircan Hidir. – Berlin: Peter Lang GmbH, Internationale Verlag der Wissenschaften, 2020. – 218 p.

³⁸ *Qonun as-Sag‘ir mansub ba shayxurrais Abu Ali Husayn ibn Abdulloh Puri Sino*. Bargardon Livoi Shokir. – Tehron: 1388/2008. – 108 s.

ta'kidlab o'tganlar. Al-Mazidi nashrida asar muallifi sifatida Ibn Sino ko'rsatilgan bo'lsa-da, forscha tarjimada asar uslubi Ibn Sinonikiga o'xshamaganligi sababli u "Ibn Sinoga nisbat berilgan asar", ya'ni "*al-Qonun as-sag'ir mansub ba shayxurrais Abu Ali Husayn ibn Abdulloh Puri Sino*", deb nomlangan. "Ibn Sinoga nisbat berilgan "Kichik tib qonuni" asari arab tilidan o'zbek tiliga ham ilmiy izohli tarjima qilingan³⁹. Tarjimaning annotatsiya qismida "Kichik tib qonuni" asari ikki muallif: faylasuf va tabib sifatida Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037) va isfahonlik tabib Abu Ali ibn Mandavayhga (vaf.1019) nisbat berilganligi va asar muallifi Ibn Mandavayh deb aniqlanganligi keltirilgan.

Asar o'rta asr tabobatining ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, sodda va ravon tilda yozilgan va bizgacha o'ndan ortiq nusxalarda yetib kelgan. Tarjima uning yettita qo'lyozmasi asosida tayyorlangan tanqidiy matn bo'yicha amalga oshirilgan.

"Kichik tib qonuni" va uning atributsiyasi borasida ba'zi tadqiqotlar ham e'lon qilingan. Germaniyalik olim Rafaela Viyt (Raphaela Veit) "Ibn Sinoga nisbat berilgan Kichik tib qonuni" nomli maqola e'lon qilgan⁴⁰. Muallif maqolasida "Kichik tib qonuni"ni Ibn Sinoning "Tib qonunlari"ga mazmun jihatidan aynan mos kelmasligini aytadi. Bundan tashqari, asarni Mahmud Chag'iniyning "*Qonuncha*", Ibn an-Nafisning "*Mo'jaz al-Qonun*"ni bilan solishtirib, "Kichik tib qonuni"dagi nazariy mavzular yuqoridagi asarlardagilarga qisman o'xshasa-da, bu boshqa risola ekanligini ta'kidlagan.

Uchinchi guruh esa "Kichik tib qonuni" muallifi Ibn Mandavayh, deb ko'rsatuvchi ilmiy adabiyotlardan iborat.

"Kichik tib qonuni"ning Tehronda nashr qilingan faksimilesida muallif Ibn Mandavayh deb ko'rsatilgan⁴¹. Ushbu nashr doktor Muhammad Sadrning shaxsiy kolleksiyasidagi nusxa asosida chop qilingan. Doktor Muhammad Mahdiy Isfahoniy asarga "Ibn Mandavayh Isfahoniy va uning "*Kifoya*" kitobi" nomli muxtasar kirish so'zi yozgan. Muhammad Mahdiy kirish so'zida asar muallifi haqida o'rta asr manbalarida berilgan ma'lumotlarni keltirgan. Jumladan, Nizomiy Aruziy Samarqandiy "*Chahor maqola*" ("To'rt maqola") asarining to'rtinchi maqolasida Ibn Mandavayhning "*al-Kifoya*" nomli asari borligini aytgan.

2019 yilda misrlik olim Abdulboqiy Husayn tomonidan "*al-Kifoya*" isfahonlik tabib Ibn Mandavayh asari sifatida Ummonda chop etilgan⁴². Abdulboqiy Husayn bu asarni 2021 yilda ham aynan shu nomda qayta nashr etgan⁴³. Noshir asarga katta tadqiqot yozgan. Jumladan, Sulton Adududdavlaning (vaf.983) Bag'dodda zakovatli xalifa sifatida olib borgan siyosiy-ijtimoiy faoliyati,

³⁹ Ibn Sinoga nisbat berilgan "Kichik tib qonuni" / Arab tilidagi tanqidiy matn tuzuvchi, tarjimon va ko'rsatkichlar mualliflari Abduhalimov B., Ibragimov F. – Toshkent. 2021. (Bundan keyin "Kichik tib qonuni" tarzda beriladi.)

⁴⁰ Veit Raphaela. The Smaller Canon of Medicine (al-Qanun al-sagir fil-tibb) Ascribed to Avicenna. Philosophy and Medicine in the Formative Period of Islam // . – London: Warburg Institute Colloquia № 31, 2017. – P.269-280.

⁴¹ Ibn Mandavayh. *al-Kafi fi-t-tibb* – Tehron, *Donishgohi ulumi pezeslki* 1386/2008. – 127 s.

⁴² Ibn Mandavayh. *al-Kafi fi-t-tibb*. Abdulboqiy Ahmad Husayn. *al-Kifaya fi-t-tibb*. Ummon: Noor Publishing.2019. . – 127 s.

⁴³ Ibn Mandavayh. *al-Kafi fi-t-tibb*. Abdulboqiy Ahmad Husayn. – Ummon. *Dar vard al-urduniyya lil nashri val tavzi*, 2021. . – 127 s.

ilm ahliga ko'rsatgan g'amxo'rliqi, o'z nomida kasalxonasi ochishi "*al-Bimoriston al-Adudiy*" ("Adudiy kasalxonasi") va undagi yigirma to'rtta eng sara tabib haqida batafsil ma'lumot bergan. Noshir Ibn Mandavayhning ham shu tabiblarning ichida faoliyat olib borib, Ibn Sino, Hamza ibn al-Hasan al-Isfahoniy, Abulhasan ibn Sa'd kabi tabiblar bilan tibbiy mavzuda yozishmalar olib borganligini qayd etgan. Ibn Abi Usaybi'aning "Ibn Mandavayh hoziq tabib, Galen asarlarining sharhlovchisi" degan so'zlarini keltirgan⁴⁴. Ibn Mandavayh yozgan asarlarning soni qirqa borishini yozgan⁴⁵ Isfahon shahrining geografik joylashuvi, u yerda tabobatning rivoj topishi va Bag'dod bilan tibbiy aloqalari haqida keng ma'lumotlar bergan.

Eronlik tadqiqotchilar tomonidan ham "Kichik tib qonuni" muallifini aniqlash borasida maqola e'lon qilingan⁴⁶. Mualliflar o'rta asr bio-bibliografik asarlaridagi ma'lumotlarga tayangan holda, erondagi doktor Muhammad Sadrning shaxsiy kolleksiyasi va Irlandiyaning Chester Bitti kutubxonasida saqlanuvchi №3676 raqamli qo'lyozmalardagi ma'lumotlar bo'yicha "Kichik tib qonuni"ning muallifi Ibn Mandavayh, deb biladilar. Maqolada al-Mazidi nashri va asarning Shokir Livoiy tomonidan qilingan forscha nashri haqida ham so'z yuritilgan. Maqola mualliflari "Kichik tib qonuni" Ibn Sinoniki emas, balki Ibn Mandavayhnikini ekanligini bir tomonlama isbotlashga urinishgan. Tadqiqotda "Kichik tib qonuni"ning boshqa qo'lyozmalari jalb etilmagan va ilgari e'lon qilingan nashr va tadqiqotlar haqida ma'lumotlar yo'q. Bundan tashqari, maqolada chuqur ilmiy tahlil yetishmaydi.

Boshqa eronlik tadqiqotchilarning maqolasida ham "Kichik tib qonuni" asari va uning tuzilishi haqida so'z yuritilgan⁴⁷. Maqolaga asarning barcha qo'lyozmalari jalb qilinmaganligi sababli ayrim noto'g'ri xulosalarga kelingan. Jumladan, maqolada doktor Muhammad Sadrning nusxasini qadimiy va u melodiy 1113 yil 25 noyabrda ko'chirilgan deb, ko'rsatilgan⁴⁸. Vaholanki, ushbu nusxa kolofonidagi ma'lumotga ko'ra, u 857/1453 yil ko'chirilgan⁴⁹. Maqola mualliflari asarning kirish qismida "Kichik tib qonuni" *shayx* buyurtmasi asosida yozilgan, deb keltirganlar⁵⁰. Biroq asarning barcha nusxalarida bu ma'lumot uchramaydi. Faqatgina asarning doktor Muhammad Sadr nusxasi kolofonidan keyin muallif ushbu asarni *shayxga* ma'qul bo'lishini Yaratgandan so'raganligi to'g'risida ma'lumot mavjud. Bundan tashqari, ular doktor Muhammad Sadrning nusxasini qadimiy va u Ibn Mandavayhga nisbat berilgan deganlar. Aslida doktor Muhammad Sadr qo'lyozmasi asosida amalga oshirilgan faksimile kolofonidagi

⁴⁴ Ibn Mandavayh. *al-Kafi fi-t-tibb*. Ahmad Abdulboqiy Husayn, Amman, *Dar vard al-urduniyya lil nashri val tavzi*, 2021. – B.4.

⁴⁵ O'sha joyda. – B. 29.

⁴⁶ Shekoofeh Sharififar, Marvast Mohammad Ali Salmani, Aghda Reza Afkhami, Tafazoli Vahid. The Book 'Al-Qanon al-Saghir' in the Science of Medicine and its Author!// *Journal of Medical History*. – Tehran: 2022. 14(47): 30. – 8 p

⁴⁷ Ghasemi H, Sharififar Sh, Azari H, Sharififar Sh. The Structure and Content Analysis of *Al-Qanon al-Saghir*: A Descriptive Analysis. *Res Hist Med*. 2023; 12(3): 229 – 242.

⁴⁸ O'sha joyda. – B.233.

⁴⁹ Ibn Mandavayh. *al-Kafi fi-t-tibb*. Donishgohi ulumi pezeshkiye Eron. Tehron, 1386/2008. – S. 148.

⁵⁰ Ghasemi H, Sharififar Sh, Azari H, Sharififar Sh. The Structure and Content Analysis of '*Al-Qanon al-saghir*': A Descriptive Analysis. *Res Hist Med*. 2023; 12(3). – P 232.

ma'lumotga ko'ra, asar 857/1453 yili ko'chirilgan⁵¹, uning qadimiy nusxasi esa Ibn Sinoga nisbat beriladi va bu qo'lyozma Muhammad ibn Abi al-Majd ash-Shirvoniy tomonidan 670/1271 yil Marog'ada ko'chirilgan. U hozirda Sulaymoniya kutubxonasi, Rais ul-kuttob kolleksiyasida № 000103 raqamda saqlanadi.

“Kichik tib qonuni” asarining manbashunoslik tahlili nomli ikkinchi bobning *“Asar qo'lyozmalarining qiyosiy tahlili”* deb atalgangan birinchi paragrafida “Kichik tib qonuni” ning Turkiya, Irlandiya, Ispaniya, Misr va Eron mamlakatlaridagi qo'lyozmalari tahlil qilingan. Ular ikki guruh, ya'ni biri muallif sifatida Ibn Sino ko'rsatilgan qo'lyozmalar, ikkinchisi muallif sifatida Ibn Mandavayh ko'rsatilgan qo'lyozmalarga ajratilib o'rganilgan.

“Kichik tib qonuni” qo'lyozmalarining lokalizatsiyasi keng geografik hududda tarqalgan. Turkiya Respublikasi kutubxonalari qo'lyozmalari qadimiyligi, to'liqligi va ziynatlanganligi bilan boshqa mamlakat fondlaridagi nusxalardan ajralib turadi. “Kichik tib qonuni” nomi qo'lyozmalarda *“al-Qonun al-asg'ar”*, *“Muxtasar al-Qonun”*, *“al-Qonun as-sag'ir”*, *“Kitob al-kofi[al-kifoya] fi-t-tibb”*, *“Kitob al-qonun as-sag'ir fi-t-tibb”* va *“Muxtasar fi usuli-t-tibb”* kabi turlicha uchrasa-da, ularning mazmuni va tuzilishi bitta asar ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, ular ikki muallif – Ibn Sino va Ibn Mandavayhga nisbat berilgan. “Kichik tib qonuni”ning qadimiy nusxasi XIII asr oxirida ko'chirilgan bo'lib, u Ibn Sinoga, XVII asrga mansub keyin ko'chirilgan qo'lyozmada muallif sifatida Ibn Mandavayh ko'rsatilgan. Muallifi Ibn Sino, deb ko'rsatilgan nusxalar 10 tani, Ibn Mandavayh yozganligini tasdiqlovchi nusxalar 3 tani tashkil etadi.

“Kichik tib qonuni”ning 103 raqamli Sulaymoniya kutubxonasining Rais ul-kuttob kolleksiyasidagi qo'lyozma boshqalaridan qadimiydir. Qo'lyozmadagi qayd bo'yicha asar nomi *“al-Qonun al-asg'ar ta'lif ash-shayx ur-ra'is Abi Ali ibni Sino”* (“Eng kichik qonun” muallifi shayxurrais Abu Ali ibn Sinodir”) tarzida berilgan. Varaqlarda original foliatsiya mavjud. Keyinchalik arab raqamlari bilan paginatsiya qo'yilgan. 1a varaqda Aflotunning falsafiy qarashlaridan parcha va majmuada kelgan asarlarning mundarijasi berilgan. 77b, 79a, 81b, 83b, 87a, 95b varaqlardagi hoshiyalarda tuzatish va sharhlar bor.

Asar Muhammad ibn Abi al-Majd ash-Shirvoniy nomli kotib tomonidan 670/1271 yilda Marog'ada ko'chirilgan. Qo'lyozma turli davrlarda e'tiborli kishilar qo'lida saqlangan. Unga qo'yilgan egalik qaydlari va vaqf qiluvchilarning muhrlari buni tasdiqlaydi. Qo'lyozmaning 1a va 75a varaqlarida kitob egalari va vaqf qiluvchilarning qaydlari mavjud. 1a varaqda *rais ul-kuttob* lavozimida ishlagan Mustafo ibn Muhammad (1689 – 1749)ning egalik qaydi va vaqf muhri bosilgan.

Qaydning matni quyidagicha:

هذا الله المالك الاحد عند عبده مصطفى بن محمد

Tarjimasi: Bu – al-Molik, al-Ahad Allohning [mulki]. Kitob banda Mustafo ibn Muhammad qo'lidir.

Muhrda quyidagi jumla yozilgan:

الله حسبي بسم الله الرحمن الرحيم وقف هذا الكتاب مصطفى رئيس الكتاب السابق لوجه الله الخالق وسلمه

⁵¹ Ibn Mandavayh. *al-Kafi fi-t-tibb. Donishgo'hi ulumi pezeshkiye Iron*. Tehran, 1386/2008. – S 148.

للمتولي وحكم بصحته حاكم الشرع الشريف وشرط الاستفاضة منه لأولاده فتمّ فتمّ وبعدهم يعمل به كما في الوقفية إلى قيام الساعة وأجزى الله من اشتراه وباعه سنة 1154 هـ

Tarjimasi: “Alloh menga kifoya qiladi. Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan boshlayman. Bu kitobni sobiq *rais ul-kuttob* Mustafo Yaratuvchi Alloh yo‘lida vaqf qildi va uni mutavalliga topshirdi. Sharif shariat bo‘yicha hukm chiqaruvchi ushbu vaqfning to‘g‘riligiga hukm chiqardi. Vaqf qiluvchi kitobdan bolalari foydalanishini shart qilib qo‘ydi. Tugadi, tugadi. Ulardan keyin qiyomatgacha vaqfiyaga amal qilinganidek, amal qilinadi. Alloh uni sotib olgan va sotgan kishining jazosini bersin 1154/1741-42”.

Rais ul-kuttob Mustafo ibn Muhammad Kastamonuda tug‘ilib, Istanbulda vafot etgan. U vazir va elchilik vazifalarida ishlagan. 1142/1729-30 yilda Sulton Mahmud I ni taxtga o‘tirganligi to‘g‘risidagi xabarni yetkazish uchun Avstriyaga, Karl VI huzuriga elchi sifatida yuborilgan⁵².

Shuningdek, ushbu varaqda Abu Bakr ibn Rustam ibn Ahmad ibn Mahmud ash-Shirvoniy (vaf. 1135/1722-23)ning ham kitobga egalik qaydi mavjud. Qaydning matni quyidagicha:

الله حسبي من كتب ابي بكر بن رستم بن احمد بن محمود الشرواني

Tarjimasi: “Alloh menga kifoya qiladi, Abu Bakr ibn Rustam ibn Ahmad ibn Mahmud ash-Shirvoniy kitoblaridan”.

Boyazid davlat kutubxonasi, 4123 raqamli qo‘lyozma “Kichik tib qonuni”ning mazkur kutubxonada saqlanadigan ikki nusxasining biridir. Qadimiy va boshqa nusxa bilan solishtirilganligi jihatidan ahamiyatlidir. Qo‘lyozma to‘liq, tushib qolgan joylari yo‘q. Lekin yaxshi sharoitda saqlanmaganidan uning ayrim varaqlarini qurt yegan. Matn qora siyohda; sarlavha, bob va fasllar qizil siyohda; Xat turi nasx; 64 varaq (1b-64a); satrlar qatori 13. Poygirlar mavjud. Varaqlarda original foliatsiya mavjud. 9ab, 10ab, 11a, 12a, 13ab, 15a, 45ab, 47a, 50a, 51ab, 52a, 56b, 64a varaqlarda matn cheti va satrlar orasida noma‘lum shaxs tomonidan murakkab so‘z va iboralar sharhlangan.

Qo‘lyozma Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Yusuf al-Sh(S)anduvayliy⁵³ tomonidan 793 yil sha‘bon oyining 21 kuni (1391 yil 31 iyul) ko‘chirilgan.

Ushbu nusxaning boshlagishi oldingisidan farq qilib, quyidagicha quyidagicha boshlangan:

الحمد لله الذي جعل الحمد زينة كل قول ولم يحسن وان برع ولا تم كلام وان بلغ الا بافتتاحه وتقديمه .. امامه صلى الله عليه وسلم اما بعد : فان الرغبة في العلم من الرشاد الذي يهدي الله له من يشا من عباده

Tarjimasi: “Hamd aytishni barcha so‘zlarning ziynati qilgan Allohga maqtovlar bo‘lsin. Har qanday baland so‘z go‘zal bo‘lmaydi va har qanday balog‘at bilan aytilgan gap hamd bilan boshlanmasa va undan oldin hamd kelmasa, to‘liq bo‘lmaydi. Allohning payg‘ambari Muhammad (s.a.v)ga duo va salom

⁵² <https://islamansiklopedisi.org.tr/reisulkuttob>.

⁵³ Sheshen Ramazon o‘z katalogida kotib ismiga “Yavuz” ismini ham qo‘shgan. Qarang: Şeşen, Ramazan. Türkiye kütüphaneleri İslâmî tıp yazmaları katalogu. Takdim: Ekmeleddin İhsanoğlu. – İstanbul: İslam Tarih, Sanat ve Kültürünü Araştırma Vakfı (İSAR), 1997. – S.73.

bo‘lsin. Bundan so‘ng: ilm olishga istak to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, Alloh taolo xohlagan bandasini unga hidoyat qiladi”.

Tugashi:

وقد يعجز مهرة الاطباء عن هذه الحمى, فكيف من ليس بطبيب, والوجه في ذلك ان يلجأ الامر فيه الى الطبيب ان شاء الله تعالى

Tarjimasi: “Bu xil isitmani davolashda mohir tabiblar ham o‘jiz qoladi. Tabib bo‘lmagan qanday [davolasin]. Buning yo‘li, Alloh taolo hohlasi, ishni tabibga topshirishdir”.

Qo‘lyozmaning 1a varag‘ida asar nomi “*Kitobun fihi Muxtasar al-Qonun va yu‘rafu bi al-Qonun as-sag‘ir allafahu Abu Ali al-Husayn Ibn Sīnā lil xalifa*” (“Kitobda “Kichik tib qonuni” nomi bilan tanilgan “*Muxtasar Qonun*” bor. Uni Abu Ali Husayn ibn Sino xalifa uchun yozgan”) degan yozuv bor.

1a varaqda fors tilida ازتالیفات ابن سینا ست قانونجه “*Qonuncha.... az ta‘lifoti Ibn Sino*” – ““*Qonuncha*”..... Ibn Sino asarlaridan” degan jumla qizil siyohda yozilgan. Aftidan ushbu jumlaning qizil siyohda alohida yozib ko‘rsatilishiga qaraganda, asar muallifi masalasi qo‘lyozmaning ko‘chirilgan davri (XIV-asr)da ham munozarali bo‘lgan ko‘rinadi.

“Kichik tib qonuni”ning nomi qo‘lyozmalarda turlicha uchrasa-da, ularning mazmuni va tuzilishi bir asar ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

“*Asar muallifi atributsiyasi*” nomli ikkinchi paragraf “Kichik tib qonuni” asarining muallifini aniqlashga bag‘ishlangan.

O‘rta asrlarda musulmon Sharqida ham, Yevropada ham mashhur olimlarga nisbat berilgan apokriflar yozilgan. Buning bir nechta sabablari bo‘lib, shulardan asosiysi yozilayotgan yoki ko‘p hollarda ko‘chirilayotgan asarning keng tarqalishini ta‘minlash, unga e‘tiborni tortish, shu jumladan, xaridorgiriligini ta‘minlash maqsad qilingan. Ba‘zida muallif ismining bir qismi, masalan, kunyasi yoki nisbasi bir xil bo‘lsa, ko‘chiruvchi uni o‘zi yaxshi bilgan mashhur olimga ataylab yoki agar, asar mavzusidan yiroq bo‘lsa, bilmasdan nisbat bergan. Yana bir holat – bir asar turli nomda har xil mualliflarga tegishli bo‘lgani va aksincha, bir asar turli nom ostida “ko‘payib” bir muallifniki tarzida uchrashi ham kuzatiladi.

Ibn Sino asarlari haqida ham yuqoridagilarni aytish mumkin. Lekin shu o‘rinda buyuk faylasuf va tabib hayotligidayoq asarlarining yoqilishi va o‘g‘irlanishiga qaramasdan, ular boshqa mashhur faylasuflarnikiga qaraganda ko‘p sonda yetib kelganini ham ta‘kidlash joiz⁵⁴.

Shu bilan birga, Ibn Sinoning hayotlik davridayoq yirik olim sifatida mashhur bo‘lgani keyingi davrlarda uning nomi bilan psevdovtograf va apokriflarning paydo bo‘lishiga ham olib keldi. Shundan kelib chiqib, uning haqiqiy asarlarini aniqlash uchun, avvalo, qo‘lyozmalarining transmissiyasini o‘rganish zarur. Bu esa Ibn Sino vafotidan keyingi uch-to‘rt asr mobaynidagi Islom dunyosi intellektual tarixi bilan bog‘liq⁵⁵.

⁵⁴ Alper, Ömer Mahir, Ibn Sina. – Istanbul: ISAM,2010. – S. 24.

⁵⁵ Gutas “Agenda” 53, which is to be consulted for details on the subject.

2003-yilda “Kichik tib qonuni”ning birinchi nashrini amalga oshirgan misrlik olim Abulhasan Ahmad Farid al-Mazidi ⁵⁶ va 2013, 2015- yillarda asar faksimilesini turk va ingliz tillaridagi tarjimasi bilan nashr qilgan professor Qodirjon Keskinbora ⁵⁷ kitob muallifini Ibn Sino, deb biladilar. 2020- yilda Keskinbora “Kichik tib qonuni”ning inglizcha tarjimasini Berlinda yana bir bor nashr etdi ⁵⁸. Al-Mazidi “Kichik tib qonuni” muallifi Ibn Sino ekanligini aytib, “Ibn Sino bu asarni o‘z davridagi amirlarning biri uchun yozgan”, deydi, ammo bu ma’lumotni qayerdan olganini keltirmagan. U Arab qo‘lyozmalari institutidagi muallifi Ibn Sino ekanligi ko‘rsatilgan ikki qo‘lyozmadan foydalangan. Bundan tashqari, al-Mazidi nashri asosida eronlik sinoshunos olim, doktor Shokir Livoiy asarni arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Doktor Husayn Rizoizoda unga muharrirlik qilgan ⁵⁹. E’tiborli jihati shundaki, ham tarjimonda, ham muharrirda Ibn Sino mazkur asar muallifi ekanligi shubha uyg‘otgan. Shuningdek, “Kichik tib qonuni” matnini Ibn Sinoning “Tib qonunlari” bilan solishtirib, bu ikki asar o‘rtasida uslubiy va mazmun jihatidan mos kelmaydigan o‘rinlar mavjudligini ta’kidlab o‘tadilar.

Tadqiqot natijalari “Kichik tib qonuni”ning Turkiya, Misr, Irlandiya, Eron va Ispaniya kutubxonalarida 13 ta nusxasi borligini ko‘rsatdi. Shularning 10 tasida Ibn Sino, 3 tasida esa Ibn Mandavayh muallif sifatida ko‘rsatilgan. Ibn Sinoga nisbat berilgan “Kichik tib qonuni” va Ibn Mandavayhning “*al-Kofiy*” asari nomlari har xil bo‘lsa-da, ularning mundariyasi va mazmuni bitta asar ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Garchi “Kichik tib qonuni” qo‘lyozmalarinig aksariyatida muallif sifatida Ibn Sino ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, bu yetarli asosga ega emas. Faqatgina turkiyalik olim Ramazan Sheshen bu asar nomini “*al-Qonun al-asg‘ar*” li *Ibni Sino*” (“Ibn Sinoning eng kichik qonuni”) shaklida berib, uni Ibn Sino yozgan asarlar qatoriga kiritgan ⁶⁰. Lekin Sheshen mazkur asar atributsiyasi ustida maxsus tadqiqot olib bormagan va faqat kotibning qo‘lyozma nomida bergan ism zikriga asoslangan ⁶¹. Ibn Sinoning tarjimai holi va yozgan asarlari haqida ma’lumot beruvchi dastlabki manba Abdulvohid al-Juzjoniyy tomonidan yozilgan olimning “Tarjimai holi” va boshqa o‘rta asr bio-bibliografik manbalarida Ibn Sinoning “Kichik tib qonuni” yoki shunga yaqin nomdagi asari borligi haqida ma’lumot uchramaydi. Ibn Sino asarlari katalogini tuzgan misrlik olim J. Qanavatiy esa bu kitobni olimga nisbat berilgan anonim asarlar qatoriga qo‘shgan ⁶². Shu bilan birga, Ibn Mandavayhning shunday asar yozgani va u yana boshqa nomlar bilan ham tanilganini tasdiqlovchi ma’lumotlar bor. Ularning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

⁵⁶ Abu Ali ibn Sino. *al-Qonun as-Sag‘ir fi-t-tib*. Nashr qiluvchi: al-Mazidi, Abu-l-Hasan Ahmad Farid. – Bayrut–Livan: *Dar al- kutub al-ilmiya*. 2003. –104 s.

⁵⁷ Ibn Sino’nin Küçük Tıp Kanunu. Çevirmen Keskinbora Kadircan.– İstanbul: Bahçeşehir üniversitesi yayınları. 2013, 2015. – 173+54 s

⁵⁸ The Small Canon of Medicine, Translator: Keskinbora Kadircan. Peter Lang GmbH, Internationale Verlag der Wissenschaften. – Berlin: 2020. – 218 p.

⁵⁹ *Qonuni kuchek mansub ba Ibn Sino*. Bargardon: Livoi Shokir. – Tehron: 1388/2009. – 108 s.

⁶⁰ Şeşen, Ramazan. Türkiye kütüphaneleri İslâmî tıp yazmaları kataloğu: Arapça, Türkçe ve Farsça / editör: Ekmeleddin İhsanoğlu. İslam Tarih, Sanat ve Kültür Araştırma Merkezi. – İstanbul: 1984. – S.73.

⁶¹ Ramazon Sheshen bilan qilingan suhbadan. İstanbul. 26.02.2020 yil.

⁶² Anawati G. Essai de bibliographie Avicennienne. – Le Caire 1950.

Bn Mandavayh va uning “al-Kifoya fi-t-tibb” nomli asari haqidagi ma’lumotni arab tarixchisi, adibi va davlat arbobi Jamoluddin Abulhasan Ali ibn Yusuf Ibrohim ibn Abdulvohid ash-Shayboniy al-Qiftiy (1172 – 1248) o‘zining “Tarixi hukamo” (“Hakimlar tarixi”) nomli kitobida keltirgan⁶³.

Qadimgi va islom davri tabiblari hayoti va faoliyati haqidagi ishonchli manba hisoblangan Ibn Abi Usaybi’aning (1203–1269) “*Uyun al- anbo‘ fi tabaqot il-atibbo*” (“Tabiblar toifasi haqida xabarlar manbai”) nomli kitobida Ibn Mandavayhning “*Kitob nihoyat al-ixtisor fi-t-tibb*” (“Ixtisam tib kitobi”), “*Kitob al-kofiy fi-t-tibb*” (“Yetarli tib kitobi”) yoki “*al-Qonun as-sag‘ir*” (“Kichik [tib] qonuni”) nomli asarlari borligi qayd etilgan⁶⁴.

Keyingi davr bibliograflaridan Salohiddin Xalil ibn Oybek as-Safadiy (1296–1363) o‘zining 30 jildlik “al-Vofiy bi-l-vafoyot” (“Vafot qilganlarga vafo qiluvchi”) nomli biografik asarida⁶⁵, shuningdek, mashhur turk olimi Hoji Xalifa (1609 –1657) “Kashf az-zunun” (“Shubhalarning ochilishi”) nomli kitobida⁶⁶ hamda Ismoil Pasha al-Bag‘dodiy (vaf.1920) “Izoh al-maknun fi zayli ‘ala kashf az-zunun” asarida⁶⁷. Ibn Abi Usaybi’a ma’lumotlarini tasdiqlab, takrorlaydilar.

“Kichik tib qonuni” Ibn Sino tomonidan yozilmaganini asarning “Tib qonunlari” bilan muqoyasasi ham tasdiqladi. Bu ikki asar o‘rtasidagi farqlar ularning yozilish uslubi va mazmunida mavjud. Bu ixtiloflar tibning nazariy masalalari, jumladan, inson anatomiyasi, tabobat ilmining taqsimlanishi, “mizoj” va “quvvat” tushunchalarining definitiviyasida, shuningdek, tabobat amaliyoti bilan bog‘liq diagnostika, ayrim terapevtik usullar va dorishunoslikka tegishli bo‘lgan o‘rinlarda aniqlandi. Quyida qiyosiy tahlil natijalaridan ayrim misollar keltirildi.

Anatomiya bo‘yicha. “Tib qonunlari”da yuzni shakllantiruvchi suyak va ular o‘rtasidagi choklar soni 18 ta deyilgan, lekin ularning nomlari yozilmagan⁶⁸, “Kichik tib qonuni”da yuqori jag‘ning o‘zi 18 ta suyakdan iboratligi ko‘rsatilgan⁶⁹.

Ibn Sino “Tib qonunlari” da ko‘krak qafasi 12 ta ko‘krak umurtqasi, 7 ta juft chin qovurg‘a, 2 ta o‘mrov suyagi va to‘sh suyagidan tuzilganligini bayon qilgan⁷⁰. “Kichik tib qonuni”da ko‘krak qafasi 7 suyakdan tuzilgan, deb berilgan⁷¹.

“Tib qonunlari”da bel umurtqalari soni 5 ta deb aytilgan⁷². “Kichik tib qonuni”da bel 17 ta umurtqa suyagi va 24 ta qovurg‘adan tuzilgan deyilgan⁷³.

Bundan ko‘rinadiki, “Kichik tib qonuni”dagi tavsif “Tib qonunlari”dagiga mos emas. Shuningdek, “Kichik tib qonuni”da keltirilgan “bel 17 ta umurtqa

⁶³ Ibn al- Qifti. *Tarih al-hukama*, Institute for the history of Arabic-Islamic Science at the Johann Wolfgang Goethe University. – Frankfurt am Main:1999. – P 438.

⁶⁴ <https://scholarlyeditions.brill.com/reader/urn:cts:arabicLit:0668IbnAbiUsaibia.Tabaqatalatibba.lhom-ed-araI:11.16?q=%D8%A7%D9%84%D9%83%D8%A7%D9%81%D9%89&qk=form>

⁶⁵ al- Safadiy, Salohiddin. *al- Vofiy bi-l-vafoyot*. – Bayrut:2007, Dor ihyo al-turos al-arabiy. Jild:VII. – B.35 –36.

⁶⁶ Hoji Xalifa. *Kashf az-Zunun*. – Bayrut: 1999, Dor ihyo al-turos al-arabiy, II, – B. 574.

⁶⁷ al-Bag‘dodiy, Ismoil Basha. *Izohal-maknun fi zayli ala kashf az-zunun*. – Bayrut: 2006, *Dar ihyo al-turos al-arabiy*. 2: – B. 259

⁶⁸ Abu Ali ibn Sino. “Tib qonunlari”. Birinchi kitob / Arabchadan tarjima qiluvchilar: Rasulev A., Mirzayev S., Karimov U., Murodov A – Toshkent: Fan, 1983, B.47 –50. (bundan keyin “Qonun”).

⁶⁹ Kichik tib qonuni. – B. 9.

⁷⁰ Qonun I. – B.47 – 50

⁷¹ Kichik tib qonuni. – B. 9.

⁷² Qonun I. B. – 47–50.

⁷³ Kichik tib qonuni. – B. 9.

suyagi va 24 ta qovurgʻadan tuzilgan” jumlasini anatomiya nuqtai nazaridan ham toʻgʻri emas, zero, belda qovurgʻalar yoʻq.

2. Tabobat ilmining taqsimlanishi xususida: Ikkala kitobda ham tabobat nazariy va amaliy qismlarga boʻlingan. Nazariy qism tabobatning tabiiy manbalari, tabobatning zaruriy manbalari hamda kasalliklar sabablari, turlari va belgilarini oʻz ichiga oladi.

Tabobatning tabiiy manbalari “Tib qonunlari”da 7 ta: unsurlar, mizoj, xiltlar, aʼzolar, ruh, quvvatlar va feʼllardir. “Kichik tib qonuni”da esa sanalgan 7 taga yana 4 ta: yoshlar, ranglar, yogʻlar va jinsiy farqlar qoʻshilgan⁷⁴.

Nazariy qismga kiruvchi “tabobatning zaruriy narsalari” ham ikkala manbada bor. Faqat ular Ibn Sinoning “Urjuza fi-t-tibb” asarida hamda “Kichik tib qonuni”da shunday nomda, “Tib qonunlari”da esa “taʼsir qiluvchi sabablar” jonzotlarning yashashi uchun zaruriy omil ekani bayon etilgan⁷⁵ va 6 turga boʻlingan: havo va unga aloqador narsalar, ovqat va ichimlik suvi, boʻshalish va toʻxtalish, jismoniy harakat, uyqu va uygʻoqlik, nafsoniy harakat va osoyishtalik⁷⁶. “Kichik tib qonuni”da bular 7 ta boʻlib, “nafsoniy harakat va osoyishtalik” “ruhiy holatlar” deb nomlangan va 7-si qilib “hammom” qoʻshilgan⁷⁷.

Agar qiyoslanayotgan ikki asar Ibn Sino qalamiga mansub boʻlganida, tabobatning taqsimlanishidagi zaruriy va tabiiy manbalar tarkibi “Kichik tib qonuni”da ham olimning boshqa tibbiy asarlaridagidek boʻlar edi.

3. Mizoj haqida. “Tib qonunlari”da maʼlum bir unsur, aʼzo, isteʼmol mahsulotlari, yoki dorining tabiatini ifodalashda “*mizoj*” soʻzi ishlatilgan, chunki “*mizoj*” – tabiat va haroratdan tashkil topgan boʻlib, taʼsir qilish va taʼsirni qabul qilish xossalari namoyon qiladigan sifatdir. Biroq “Kichik tib qonuni”da shu holatlarda mizoj soʻzining oʻrniga quvvat ishlatilgan. Masalan, olovning quvvati issiq-quruq; havoning quvvati issiq-hoʻl, suvning quvvati sovuq-hoʻl, tuproqning quvvati sovuq-quruqdir⁷⁸.

Xuddi shuningdek, “Kichik tib qonuni”ning “Ovqatlar, ichimliklar va ulardan keyingilarning quvvatlari haqida” deb nomlangan ikkinchi maqolasida ham turli isteʼmol mahsulotlarining mizoj turlari va darajalari quvvatlar sifatida taʼriflangan. Lekin “Tib qonunlari”dagi quvvatning taʼrifi prinsipial jihatdan farq qiladi. Ibn Sino quvvatlar va ulardan paydo boʻladigan taʼsirlarning jinslarini uchga: nafsoniy quvvat, tabiiy quvvat va hayvoniy (yaʼni hayotiy) quvvatga ajratadi. Nafsoniy quvvatning oʻrni, taʼsiri va paydo boʻlish yerini bosh miya, tabiiy quvvatlarnikini jigar va moyaklar, hayotiy quvvatning manbaini esa yurak, deb koʻrsatadi⁷⁹.

4. Diagnostika masalalari. Oʻrta asrlar tabobatida tomir urishidan va siydikdan dalil olish tashxislashning muhim tadbirlardan biri boʻlgan. Chunki siydikni tahlil qilish birlamchi jigar, taloq, xiltlar, tomirlar va oʻtar yoʻllar faoliyati,

⁷⁴ Oʻsha joyda. – B. 15–17.

⁷⁵ Abu Ali ibn Sino. Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy oʻgit. – Toshkent: Ibn Sino, 1999. – B. 30-35.

⁷⁶ Qonun I. – B. 7.

⁷⁷ Kichik tib qonuni. – B. 17.

⁷⁸ Oʻsha joyda. – B. 34.

⁷⁹ Qonun I. – B. 126–140.

shuningdek, ikkilamchi siydik ajratuvchi a'zolar: buyrak, siydik yo'li, qovuqning faoliyatini o'rganishga xizmat qilgan.

Ibn Sino "Tib qonunlari"da siydikdan olinadigan 7 ta dalilning biri sifatida uning rangini qayd etadi va ularni 5 turga ajratadi: sariq, yashil, qora, oq va qizil. Bularni navlariga ajratib tushuntiradi⁸⁰.

"Kichik tib qonuni"da siydikning 6 xil rangi zikr qilingan: oq, sariq, olovrang, och qirmizi, to'q qirmizi va qora⁸¹. Siydik ranglaridagi farq ulardan olinadigan dalillarning ham farqlanishini, ya'ni boshqa-boshqa kasalliklarga ishora berishini anglatadi.

5. Kasalliklarni davolash (terapiya) masalalarida ham ikki asar orasidagi farqlarni ko'rish mumkin. Qon sababli paydo bo'lgan issiq bosh og'rig'ini davolashda Ibn Sino bilakdagi qiyfol tomiridan qon olishga shoshilish zarurligini aytadi: "Agar bilakdagi qiyfol tomiridan qon olish kifoya qilmay, og'riq o'z holida qolaversa, shuningdek, tomirlarning hammasi irg'ib chiqsa, burunning har ikki tomonidagi va peshonadagi tomirdan qon olinadi, chunki burun va peshona tomiri shunday bir tomirki, undan qon olinsa, bosh og'riqlari, ko'pincha tagidan yo'q bo'ladi"⁸².

"Kichik tib qonuni"da shu holatda ko'riladigan chora aniq emas: "Issiq bosh og'rig'i qondan paydo bo'lganda, tomirdan qon olinadi va "hijomat" qilinadi". Muallif tananing qaysi tomiridan qon olish va qayerdan "hijomat" qilishni aytmagan⁸³.

Bundan tashqari, "Kichik tib qonuni" va "Tib qonunlari"da arteriya va vena tomirlari nomining atalishida ham ayrim farqlar mavjud. "Kichik tib qonuni"da inson tanasining alohida qismlarini tushuntirish uchun arteriya va vena tomirlarini *al-'uruq an-navobiz* va *al-'uruq g'ayr-an-navobiz* va *al-'uruq al-zavorib* va *g'ayr zavorib* so'zlari ishlatilgan⁸⁴. Biroq "Tib qonunlari"da esa bu nomlar *al-'uruq al-zavorib* va *al-'uruq al-savokin* terminlari orqali berilgan⁸⁵.

Tabobat ilmining nazariy va amaliy masalalari qisqa bayon etilgan ushbu asar ikki muallifga tegishli bo'lsa-da, qo'lyozmadagi qaydlarda Ibn Sino uning muallifi sifatida ko'rsatilganligiga qaramay, Ibn Sinoning tibbiy asarlari va "Kichik tib qonuni" tahlili buning ishonchli emasligini ko'rsatdi. Chunki uni qayd etgan kishilar asar matnini tahlil qilmaganlar. O'n uchta qo'lyozmaning o'ntasitasida "Kichik tib qonuni" asari muallifi Ibn Sino ko'rsatilib, hatto ba'zi nusxalarda Ibn Sino yozganligi alohida qizil siyohda yozilgan bo'lsa-da, bu yetarli dalil hisoblanmaydi.

Yuqorida aytilganlar asosida "Kichik tib qonuni" asari Ibn Sinoning zamondoshi, kunyasi Abu Ali bo'lgan tabib Ahmad ibn Abdurrahmon ibn Mandavayh qalamiga mansub, deyish mumkin.

⁸⁰ O'sha joyda – B. 269 – 277.

⁸¹ Kichik tib qonuni. – B. 20.

⁸² Qonun III (1). – B. 63.

⁸³ Kichik tib qonuni. – B. 43.

⁸⁴ O'sha joyda. – B. 120.

⁸⁵ Qonun 2- kitob. – B. 56.

“Kichik tib qonuni”da terminlarning qo‘llanilishi nomli ikkinchi paragrafda asarda qo‘llanilgan terminlar tahlil qilingan. “Kichik tib qonuni”da ishlatilgan tushuncha va terminlar asosan arabchadir. Ayrimlari kelib chiqishi jihatidan yunon, suryoniy, fors va hind (asosan o‘simlik nomlari) tillariga borib taqaladi. Umuman, VIII–IX asr boshlarida Bag‘dodda aniq va tabiiy fanlar, jumladan, tabobatga oid asarlar yunon va suryoniy tilidan arab tiliga tarjima qilina boshlangan. Tarjima jarayonida yunoncha, suryoniycha terminlar tibbiy asarlarga o‘tgan. Musulmon Sharqi olimlari vaqt o‘tishi bilan arab tilining ichki qonun-qoidalari va sharq tillariga tayanib, yunoncha va suryoniycha terminlarning muqobilini ishlab chiqqanlar. “Kichik tib qonuni”da ham yunoncha va suryoniycha terminlar kamchilikni tashkil etadi. Asar hajm jihatidan kichik, ammo undagi terminlarning qamrovi keng. Unda 150 dan ortiq termin va tushunchalar ishlatilgan. Ularning barchasi – tibbiy terminlar yoki tabobat ilmi bilan bog‘liq. Semantik ma’no jihatidan ularni to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: a) umumiy terminlar; b) inson tana a‘zolarining nomlari; v) dorivor o‘simliklar va dori vositalarini tayyorlash uchun ishlatiladigan moddalarning nomlari; g) kasalliklar nomlari.

Umumiy terminlar. Ushbu guruhga kiruvchi terminlar ko‘pincha tib ilmining nazariy masalalari yoki falsafa kabi fanning boshqa sohasi bilan bog‘liq mushtarak terminlarni tashkil qiladi.

At-Tib (الطب) – “tabobat”. “Orttirish va kamaytirish orqali inson tanasini davolashni maqsad qiluvchi ishdir”. “Tabiiy hikmatning juz’iy qismlaridan biridir. Maqsadi – inson tana a‘zolarining tuzilishi va holatini kasallik va salomatlik jihatidan o‘rganadi, kasallikni davolash va salomatlikni saqlash uchun uning sabablari va belgilarini aniqlaydi”⁸⁶.

“*At-Tabib*” (الطبيب) – “Tabib” – Tanani davolovchi kishi⁸⁷. “Har bir tabib inson tana holatini yaxshi bilishi, uning o‘zgarishi va orqaga qaytishi bilan bog‘liq nozik jihatlardan xabardor bo‘lishi lozim”⁸⁸.

Inson tana a‘zolari nomlari. Bu qismdagi nomlar: yunoncha va suryoniycha va sof arabchadan yasalgan yangi terminlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, “jiraha” (جراحة) – jarrohlik, “tashrih” (تشریح) – anatomiya shular jumlasidan. Inson tana a‘zolari (anatomiya) nomini ifodalashda qabul qilingan “tashrih” termini ham asarda shu ma’noda ishlatilgan. Muallif inson tana a‘zolarini 25rab va murakkabga ajratgan. 12 ta 25rab va 17 ta murakkab a‘zo nomlarini keltirgan. Suyaklar, asab (nerv), boyloqlar, paylar, mushaklar, arteriya, vena, yog‘, parda, teri, tuk va tirnoqni 25rab a‘zolarga, bosh miya, ko‘z, til, quloq, yurak, o‘pka (ko‘krak qafasi bilan) va qorin bo‘shlig‘I o‘rtasidagi pardadiafragma, me‘da, ichaklar, jigar, o‘t qopi, taloq, buyrak, qovuq, moyaklar, erkaklik olati, ayol bachadoni kabi a‘zolari esa murakkabga ajratgan⁸⁹.

“Kichik tib qonuni”ning birinchi maqola uchinchi bobi murakkab a‘zo hisoblangan ko‘z anatomiyasiga bag‘ishlangan. Murakkab a‘zo bo‘lgan ko‘z 25rab

⁸⁶ Ibn Sino. *Tis‘a rasoil fi-l-hikma va-t-tabiiyyot*. – al-Qohira: *Dar al-arab al-bustaniy*. – B.110.

⁸⁷ Shirzad M., Irannajad Sh., Nirumand M., Ardakoniyy. Mo‘jam al-mustalahot at-tibbiya (arabiy, porsiy, inglisiy). – Tehron. 2004. – B. 56.

⁸⁸ Kichik tib qonuni. – B.22.

⁸⁹ Kichik tib qonuni. – B.24–34

parda va uch suyuqlikdan tarkib topgan. Koʻzning tuzilishi oʻquvchiga tushunarli boʻlishi uchun uni moddiy jism va narsalarga oʻxshatib tushuntirilgan. Masalan, qorin pardasiga oʻxshaganligi uchun *“al-tabaqa-al-mashimiyya”* – yoʻldosh parda; toʻrga oʻxshaganligi uchun *“al-tabaqa al-shabakiyya”* – toʻrsimon qavat; oʻrgimchak ini toʻriga oʻxshashanligi uchun *“al-tabaqa al-ankabutiyya”* – oʻrgimchak toʻri pardasi deb nomlangan⁹⁰.

Ayrim inson tana aʼzolarini nomlashda aʼzo bajargan vazifa va uning shaklidan kelib chiqilgan. Masalan, ichak enining uzunligi *“oʻn ikki barmoq”* boʻlganligi uchun uni *“al-maiʼ al-isna ashariy”* – *“oʻn ikki barmoqli ichak”*, ovqat turib qolmay, oʻtib ketuvchi ichakni *“al-maiʼ al-soim”* – *“roʻzador ichak”*, chiqish yoʻli (ogʻzi) yoʻqligi uchun *“al-maʼi al-aʼvar”* – *“koʻr ichak”* deb atalgan⁹¹.

Kasalliklar nomlari. Kitobning toʻrtinchi maqolasidan oʻninchi maqolasigacha boshdan tovongacha boʻladigan kasallik nomlari, sabab va belgilari haqida soʻz boradi. Ularning koʻpchiligi yunon, suryoniy, fors va hind tillaridan arabiylashtirilgan. Arab tilining ichki qoidalari asosida yasalgan sof arabcha nomlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Masalan, faʼlun (فعل) qolipida yasalgan kasallik nomlari: *“al-Bahaq”* (البهق) – terining oqarishi (vitiligo); *“al-Ramad”* (الرمد) – koʻzning yalligʻlanishi; *“al-Jarab”* (الجرب) – qichima: *“fuʼalun”* (فعال) qolipida yasalgan kasallik nomlari: *“as-Suda”* (الصداع) – qattiq bosh ogʻrigʻi; *“al-Zukom”* (الزكام) – tumov; *“al-Duvor”* (الدوار) – bosh aylanishi; *“al-Juzom”* (الجدام) – teridagi qora dogʻlar va boshqalar.

Arab tilida joy va asbob-uskuna nomlari *“mafʼalun”* (مفعول) yoki *“mifʼalun”* (ميفعل) qolipida yasaladi. Inson aʼzosi sifatida qaralgan *“maqʼad”* – orqa teshik ham shu qolipda yasalgan. *“Maqʼad”* da ogʻriq, loʻqqilash va ich qotish boʻlsa, buning sababi – shu joyda paydo boʻlgan issiq shishdir⁹². *“Fuaʼlun”* (فُعَال) yoki *“fiʼalun”* (فِعَال) qolipida yasalgan nomlar: *“al-Qulo”* (القلاع). *“Qulo”* – *“ogʻiz chaqasi”*, stomatit. Masalan, Chaqalar qizil boʻlsa, boʻyin chuqurchasidan hijoma qilinadi, tut sharbati, xom uzum sharbati va rovoch sharbati bilan ogʻiz chayiladi⁹³.

Dorivor oʻsimliklar va dori vositalarini tayyorlash uchun ishlatiladigan moddalarning nomlari. Bu guruhda ham turli tillar: yunoncha, suryoniycha va forschadan arabchaga oʻzlashgan terminlar haqida soʻz yuritiladi. Asarda maʼlum fikr va nazariyani isbotlash uchun yunon tabiblariga murojaat qilinadi. Bundan tashqari, mazkur tabiblar ismlari bilan ishlatilgan dori nomlari ham mavjud. Masalan, Jolinus (Galen) maʼjuni, Rufus iyoraji,⁹⁴ va boshqalar.

Asarda fors tilidan oʻtgan terminlar koʻpchilikni tashkil qilib, ular kasallik va dorivor moddalarning nomlarida uchraydi. Masalan, *“Al-Anjudon”* va *“al-hiltit”* (الأنجدان والحلتيت) – sassiq kavrak, boldirgʻon va uning yelimi, *“angudon”* soʻzidan olingan⁹⁵ *“Al-Tarxun”* – sherolchin. Botanik nomi: *Artemisia dracunculus* L,

⁹⁰ Oʻsha joyda. – B.29–30.

⁹¹ Oʻsha joyda. – B.31–32.

⁹² Oʻsha joyda – B.100.

⁹³ Oʻsha joyda. – B.81.

⁹⁴ Rufus iyoraji – qadimgi rim tabibi Rufusga (I-II asrlar) nisbat berilgan iyoraj, yaʼni surgi dori. Qarang: Qonun, V. B. 65–68.

⁹⁵ Qonun, II, №22; Saydana, № 107.

forscha “*tarxun*” soʻzidan arablashgan. U, oʻz navbatida, yunoncha “*drakon*” dan yasalgan. “*Al-Sumoq*”– *Rum ismalogʻi*. “*Sarmaj*” soʻzidan arabchalashgan ⁹⁶.

“Kichik tib qonuni” da ayrim arabcha terminlar oʻzbek tilida aynan arabcha soʻzning soʻzma-soʻz tarjima varianti sifatida qabul qilingan boʻlsa, ayrimlari arabcha emas, balki forscha soʻzning tarjimasini sifatida oʻtgan. Masalan, “*inab as-saʻlab*” (عنب الثعلب)⁹⁷ soʻzi oʻzbekchaga soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “*tulkiuzum*” maʼnosini anglatadi, ammo oʻzbek tiliga fors tilining taʼsiri natijasida bu soʻzning forscha “*sag-i angur*” yaʼni “*ituzum*”⁹⁸ nomi qabul qilingan.

“Kichik tib qonuni” da tibbiy terminlar rang-barang berilgan. Ular etimologik jihatidan yunon, suryoniy, fors tiliga mansub boʻlsa-da, arab tilining lugʻat boyligiga aylangan. Yunoncha terminlar inson tana aʼzolariga oid soʻzlarda ishlatilsa, dorishunoslikka oidlarining aksariyati fors-tojik tiliga tegishli boʻlganligini koʻrish mumkin.

“**“Kichik tib qonuni”dagi tabobat masalalari**” deb nomlangan uchinchi bobning “*Asardagi tashxis usullari*” nomli birinchi paragrafida kasallikka tashxis qoʻyish usullaridan tomir urishini aniqlash va peshobdan dalil olish berilgan. Musulmon Sharqi tabobatida tomir urishi va peshobdan tashxis qoʻyish asosiy usullar deb qaralgan. Hatto bu tashxis usulining ahamiyati yuqoriligidan Ibn Sino “*Risolai ragshenosi*” (“Tomir urishi haqida risola”) nomli asar ham yozgan⁹⁹.

“Kichik tib qonuni” oʻquvchilarning keng ommasiga moʻjallangan risola boʻlganligi uchun tomir urishining nazariy asoslari va unga sabab boʻluvchi omillar, shuningdek, uning barcha turlari haqida toʻliq maʼlumot berilmagan. Asardagi birinchi maqolaning beshinchi, oltinchi va yettinchi boblarida tomir urishi, peshob orqali tashxis qoʻyish va tananing boshqa chiqindilari toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot uchraydi ¹⁰⁰.

Muallif mavzuga kirishdan oldin tomir urishi nimaligi toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtgan. “Barcha arteriyalarning tomir urishi yurak urishiga mos ravishda bir xildir. Shuning uchun birining tomir urishi orqali barchasi hamda yurak tomirining urishi haqida bilimga ega boʻlish mumkin”¹⁰¹. Xuddi shu taʼrif “Tib qonunlari”dagiga mos keladi. Faqat unda tomir urishining nima sababdan yuzaga kelishi aytilgan. “.....tomir urishi yurak va arteriyalarning muqobil kengayish va qisqarish shaklini oladigan harakati, nafas orqali olingan havoning boshqarilishiga duch keladi”¹⁰².

Ibn Mandavayh tomir urishining holatlari va uning inson tanasidagi oʻzgarishlari haqida toʻxtalgan. Ammo kam oʻrinlarda tomir urishining oʻzgarishi qanday kasallikka dalolat qilishini aytgan. Masalan, “Agar xafaqon badan toʻlishligi va qattiq tomir urishi bilan boʻlsa, oʻng tomondagi bosiliq tomiridan qon ol”¹⁰³.

⁹⁶ as- Sayyid Adi Sher., *Alfoz al-forsiyaya al-muarraba. Dar al- arab al-bustoniyy*. – al- Qohira: 1998. – S. 90.

⁹⁷ *Solanum nigrum* L.

⁹⁸ Kichik tib qonuni. – B.95.

⁹⁹ Ibn Sino. *Risolayi ragshenosi*. – Qum: 2018.

¹⁰⁰ Kichik tib qonuni. – B.37.

¹⁰¹ Oʻsha joyda. – B.37.

¹⁰² Qonun I. –B. 75

¹⁰³ Oʻsha joyda. –B.85.

“Kichik tib qonuni”da tomir urishi orqali qanday kasalliklar aniqlaganiga tavsif berilmaganligi uning tabobatdan xabari bo‘lmaganlar uchun ham mo‘ljallanganligidan, deyish mumkin. Jumladan, muallif tomir urishi nima, uni shakllantiruvchi komponentlar: hayotiy ruh, qon, tabiiy tana harorati, ruh idishlari, ularni haratlantiruvchi omil – hayotiy quvvatlarning bajaradigan vazifasidan kelib chiqib, tomir urishining holatlarini bayon qilmagan.

Peshobdan tashxis qo‘yish. Gumoral nazariyaga asoslagan musulmon Sharqi tabobatida peshobni fizik tekshiruvdan o‘tkazish nafaqat urologik kasalliklarni, balki boshqa tizimli kasalliklarni ham tashxislashda katta yordam bergan. Tabiblar peshobdan tashxis qo‘yish uchun bir nechta jihatlarga e‘tibor qaratishgan. Masalan, peshobning miqdori (*miqdar*), rangi (*lavn*), hidi (*roiha*), konsistensiyasi (*qivam*), ko‘pigi (*zubda*), shaffofligi (*shafa*), loyqaligi (*kudurat*) va cho‘kmalari (*rusub*)ga. Ammo bu mezonlar turli tabiblarda har xil bo‘lgan. Masalan, Ibn Sino peshobning besh xil rangini asos qilib olgan va shularga tayanib tashxis qo‘ygan¹⁰⁴ “Kichik tib qonuni”da esa, Ibn Sinodan farqli o‘laroq peshob rangining besh turi sanalgan¹⁰⁵.

“Kichik tib qonuni”da muallif bu usuldan isitma, mizoj buzilishi yoki badanning barcha kasalliklari va siydik yo‘llari, ya’ni buyraklar, qovuq va tanosil kasalliklariga tashxis qo‘yishda foydalangan. Ibn Mandavayh fikricha, siydikning yaxshisi mo‘tadil bo‘lganidir. Siydik ikki qismga bo‘linadi: suv va suvdan ajralgan cho‘kindi. Suv ikki qismdan iborat. Birinchisi *qivom* (zichlik darajasi), boshqasi rangdir. Qivom uch turli bo‘ladi: siyrak, qalin va mo‘tadil¹⁰⁶.

“Kichik tib qonuni”da tomir urishining 10 turi va peshob rangining 6 turidan inson tanasida kechayotgan o‘zgarishlar va kasalliklar bo‘yicha tashxis olingan. Axlal rangining o‘zgarishidan esa, ko‘pincha, ichak bilan bog‘liq kasalliklar uchun dalil olingan.

“*Ibn Mandavayh qo‘llagan terapevtik usullar va ularning o‘ziga xos jihatlari*” nomli uchinchi paragrafda “Kichik tib qonuni”da kasallikni davolashda gumoral nazariyaga tayangan. Gumoral nazariya bo‘yicha davolashga dastlabki yondashuv kasalliklar va ularga ta’sir qiluvchi tashqi omillar (havo, suv va oziq-ovqat)ni normallashtirish va muvozanatlash uchun rejimni o‘rnatishni nazarda tutadi. Agar bu yetarli bo‘lmasa, boshqa vositalar, masalan, tabiiy dorilar bilan davolash tavsiya etilgan. Tabib tomonidan belgilangan har qanday davolash usuli bemorning mizojini mo‘tadillashtirish va a’zoning faoliyatini tiklashga yordam beruvchi tashqi vosita hisoblanadi. Ibn Mandavayh shulardan kelib chiqib, bemorni davolashda uchta terapevtik usuldan foydalangan.

Ulardan birinchisi “*al-Iloj bi-lg‘izo*” (“Ovqat bilan davolash”) dir. Bu usul orqali bemorga ma’lum bir ovqatlanish tartibi tavsiya qilingan. Musulmon Sharqi tabobatida ovqatlar va ichimliklar issiq va sovuq mizojli bo‘lib, inson tanasini davolash xususiyatiga ega deb qaralgan. Hatto bemorga to‘g‘ri ovqatlanishni tavsiya qila olmagan kishi tabib deb hisoblanmagan. Abu Bakr ar-Roziy haqiqiy

¹⁰⁴ O‘sha joyda. – B.90.

¹⁰⁵ Kichik tib qonuni. – B.41.

¹⁰⁶ O‘sha joyda. – B. 41.

tabib bemorni ovqat bilan davolaydi, degan¹⁰⁷. Ovqat odamning yoshi, mizoji, iqlim va yil fasliga qarab tanlangan. Bundan tashqari, bu usul sodda va hammaga mos bo‘lganligi sababli tabiblar bunday davolash usuliga alohida e’tibor berganlar. “Kichik tib qonuni”da ham ovqat bilan davolash asosiy muolaja vositasi sifatida tanlangan. Ibn Mandavayh ba’zi o‘rinlarda iste’mol qilinadigan nonni ham dori qatoriga qo‘shib, ayrim kasalliklarni davolashda tavsiya qiladi. Masalan, issiq meningit bilan og‘rigan bemor hushiga kelganda, *havoriy noni* va *tabar zad* shakari bilan ovqatlanishni buyuradi¹⁰⁸

Ikkinchisi “*al-Iloj bi-d-davo*” (“Dori bilan davolash”) yoki farmakoterapiyadir. Asarda bu usuldan keng foydalanilgan bo‘lib, turli o‘simlik, mineral va hayvonot manbalaridan olingan 100 ga yaqin dori vositalari ishlatilgan. Ularni bemorga qaynatma, surtma dori, surgi, hab dori va xushbo‘yliklar shaklida qo‘llash tavsiya etilgan. Bemorga dori tavsiya qilishda soddadan murakkabiga o‘tilgan. Bir kasallikni davolashda ikki va undan ortiq usul tanlangan. Muallif savdodan paydo bo‘lgan sovuq bosh og‘rig‘iga quyidagi davolashni tavsiya qilgan: “Hindiston qora halilasi qaynatmasiga [qo‘shilgan] mayiz, “*xiyorshanbar*”, “*foniz*” va toza kunjut yog‘i [beriladi]. Gulxayri va moychechak yog‘i burunga tomiziladi. Bemor boshiga moychechak qaynatmasi quyiladi. Shuningdek, u yog‘, sariq va qizil shakardan tayyorlangan mayin “*falulaj*” iste’mol qiladi¹⁰⁹

“Kichik tib qonuni”da kasalliklarni davolashda ayrim dorilar tavsiya qilingan bo‘lsa-da, ular bilan davolashning qoidalari berilmagan. Ibn Sinoning “Tib qonunlari”da esa, dorilar bilan davolashning uch qoidasi ya’ni, dorining mizojini aniqlash, iste’mol miqdorini tanlash, iste’mol vaqti va uni qo‘llash yo‘lini tanlash qoidalari bayon etilgan¹¹⁰.

Uchinchisi “*al- Ilāj bi-l-yad*” (“Qo‘l bilan bajariladigan ishlar”) bo‘lib, ularga “*fasd*” (tomirdan qon olish), “*hijomat*” (teri ostidan qon olish), “*huqna*” (klizma qilish), qustirish, dorini burunga tortish va boshqa usullar kiradi. “Kichik tib qonuni”da har bir kasallikning sababi va belgisi bayon qilinib, unga mos davolash usuli belgilangan. So‘ngra bemorga muayyan ovqat tavsiya qilingan. Ibn Mandavayh bunda ortiqcha tafsilotlarga berilib ketmay, masalani qisqa va lo‘nda bayon qilgan. “Issiq bosh og‘rig‘i qondan [paydo] bo‘lishi mumkin. Belgisi: yuz qizaradi, tomirlar to‘ladi va tomir katta uradi. Davosi: tomirdan qon olinadi va *hijomat* qilinadi. Ovqati: tuxumning sarig‘i, sachratqi va sirka bo‘ladi”¹¹¹.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Kichik tib qonuni”da bemorni davolashda ovqat, dori va qo‘l ishi bilan bajariladigan usullardan foydalanilgan. Bu usullar orqali muallif gumoral nazariya usullariga ergashgan va bemorni kasaliga qarab davolash yo‘lini qo‘llagan. Kasallikni davolashda ba’zida to‘g‘ri ovqat birinchi o‘rinda bo‘lsa, ba’zida dori 29rabi’zida tanani tozalash turgan. Kasallikka sabab bo‘ladigan ortiqcha chiqindilarni tanadan yo‘qotish salomatlikni tiklash yoki

¹⁰⁷ Abu Bakr ar-Roziy. *Tabibun man la tabiba lahu av man la yahzuruhu at-tabib. Dar rukobiy lin-nashr.* –al-Qohira. B. 56.

¹⁰⁸ O‘sha joyda. – B. 72.

¹⁰⁹ O‘sha joyda. – B. 71.

¹¹⁰ Qonun. I. – B. 377.

¹¹¹ .Kichik tib qonuni. – B.63.

saqlash uchun qo'llaniladigan muhim usul, deb qaralgan. Organizmni tozalash usullarini qachon qo'llashni, dori vositalari bilan davolashni va qustiruvchi dorilar qanday qilib ishlatilishini tushuntirgan

XULOSA

Dissertatsiya tahlilidan quyidagi xulosalar qilindi:

1. O'rta asrlarda Ibn Sino tibbiy merosi "Tib qonunlari"dan tashqari unga tuzilgan "Qonuncha" va "Qisqartma" nomli kichik hajmli tibbiy asarlar orqali ham tarqalgan. Hozirgacha aniqlangan qisqartmalarning soni o'ntani tashkil etdi. Ayrimlari al-Iloqiyning "Iloqiy qisqartmasi" kabi "Tib qonunlari" dan saylanma bo'lsa, ba'zilar Mahmud Chag'iniyning "al-Qonuncha"si kabi xuddi shu nomda bo'lgan boshqa tibbiy asarlardir.

2. "Kichik tib qonuni"ning qo'lyozmalari Turkiya, Misr, Eron, Irlandiya va Ispaniya mamlakatlarida, keng geografik hududda tarqalgan. Asarning avtografi yoki muallif davrida ko'chirilgan nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning eng qadimiy qo'lyozmasi Muhammad ibn Abi al-Majd ash-Shirvoniy tomonidan 670/1271yilda Marog'ada ko'chirilgan va u Ibn Sinoga nisbat berilgan. Keyingisi Sayyid Mustafo as-Safiy tomonidan 1111/1699 yil Konstantinopolda ko'chirilgan bo'lib, muallif sifatida Ibn Mandavayh ko'rsatilgan. Muallifi Ibn Sino, deb ko'rsatilgan nusxalar 10 tani, Ibn Mandavayh yozganligini tasdiqlovchi qo'lyozmalar 3 tani tashkil etadi. Qo'lyozmalarda asar nomi turlicha va ikki muallifga nisbat berilgan bo'lsa-da, kitob tarkibi, tuzilishi va mazmunining qiyosiy tahlili uning bitta asar ekanligini ko'rsatdi. Qo'lyozmalarning ko'chirilgan hududlariga nisbatan xususiyatlari ham ma'lum bo'ldi. Turkiyadagi nusxalar qadimiy, to'liq, bezakli, muhr va qaydlarning borligi jihatidan boshqa mamlakatlarda ko'chirilganlaridan farq qiladi. Sultonlar uchun maxsus chiroyli xat bilan ko'chirilgan oltin suvi bilan bezatilgan nusxalarni san'at asari sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, ularda Mahmudxon I (1730 – 1754) kabi turk sultonlarining, shuningdek, davlat amaldorlarining muhrlari bosilgan nusxalar ahamiyatli hisoblanadi. Mashhur kitobdor Abu Bakr ibn Rustam ibn Ahmad ibn Mahmud ash-Shirvoniy, turli falakiyot sohasi vakillari va tabiblarning qaydlari mavjud qo'lyozmalar ham qimmatli sanaladi.

3. "Kichik tib qonuni" 10 maqoladan iborat, tabobatning nazariy va amaliy jihatlari bayon qilingan, o'quvchilarning keng ommasiga mo'ljallangan asardir. Muallif unga bemor foydalanishi uchun oson, topilishi qiyin bo'lmagan va davolash yengil bo'lgan dorilarni kiritgan. Asarning shu xususiyati uning ommalashuviga sabab bo'lgan.

4. "Kichik tib qonuni" Ibn Sinoning "Tib qonunlari" va boshqa tibbiy asarlari bilan qiyosiy tahlil qilinganda, uni Ibn Sino yozmagani, al-Mazidi va Keskinbora nashrlarida asar muallifi Ibn Sino deyilishi asossiz ekanligi, asar Ibn Mandavayh qalamiga mansubligi o'rta asrga oid bio-bibliografik ma'lumotlar va asar tahlili orqali ispotlandi.

5. Ibn Mandavayh Ibn Sinoning zamondoshi, yetuk tabib va tabobatga doir 50 ga yaqin asar yozib qoldirgan. Xalifa saroyidagi 24 tabibning biri sifatida faoliyat yuritganligi va uning “*al-Kifoya fi-t-tib*” yoki “*al-Qonun as-sag‘ir*” nomida asar yozganligi aniqlandi. U Ibn Sino, Hamza ibn al-Hasan al-Isfahoniy, Abu al-Hasan ibn Sa’d kabi tabiblar bilan tibbiy mavzuda yozishmalar olib borgan. Ammo hozirga qadar bu yozishmalar bo’yicha tadqiqotlar qilinmagan. Ibn Abi Usaybi ‘aning “Ibn Mandavayh hoziq tabib, Galen asarlarining sharhlovchisi” degan so‘zlari uning o‘rta asrlar tabobat tarixida muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi.

6. “Kichik tib qonuni”dagi tabobat masalalari: anatomiya, tibning taqsimlanishi, mizoj, tashxis va kasallikni davolash usullari Ibn Sinoning tibbiy konsepsiyasidan farq qiladi. Chunonchi, Ibn Sino “*Shayx ur-ra'is*” nomiga ega bo‘lib, har bir mavzuga falsafiy yondashib, mantiqiy izchillikka e’tibor bergan. “Kichik tib qonuni” esa sodda uslubda tibbiy savodxonlikni oshirish maqsadida yozilgan.

“Kichik tib qonuni” muallifini aniqlash va asarning tibbiy manba sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatish jarayonida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Ibn Sinoga nisbat berilgan barcha asarlarning ro‘yxatini shakllantirish; ularni fanlar bo’yicha tasniflash; har bir nisbat berilgan asarni ustida tadqiqotlar olib borish.

2. Ibn Sinoning sof ilmiy g‘oyalari va qarashlarini aniqlash uchun uning shogirdlari va izdoshlari ilmiy merosini tadqiq qilish.

3. Fan tarixiga oid manbalarni tadqiq va nashr etishda terminlar masalasining muhimligini inobatga olib, Ibn Sino asarlarining terminologiyasi va uslubini o‘rganish.

4. “Kichik tib qonuni” asarining ayrim jihatlarini zamonaviy meditsina bilan qay darajada bogliqligini ko‘rsatib berish.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.
02/30.12.2019.Tar.44.01 UNDER THE INSTITUTE OF ORIENTAL
STUDIES, UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES**

ABU RAYHAN BERUNI INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES

IBRAGIMOV FAKHRIDDIN NUSRATOVICH

**THE ATTRIBUTION OF “THE SMALL CANON OF MEDICINE” AND
ITS PLACE IN THE HISTORY OF MEDICINE**

**07.00.02 – History of Science and Technology
07.00.08 – Historiography, Source Studies and Methods of Historical
Research**

**THE ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PHD) ON
HISTORICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The title of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) has been registered by the Supreme Attestation Commission under the Ministry of High Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan with registration number of B 2025.1. PhD/Tar812.

The dissertation has been prepared at Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Sciences

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.beruni.uz) and on the website “ZiyoNET” information and educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor: **Surayyo Ubaydullayevna Karimova**
Doctor of historical sciences, professor

Official opponents: **Sanavar Bazarbayevna Shadmanova**
Doctor of historical sciences, professor

Nuryog‘di Iskandarovich Toshov
Candidate of historical sciences

Leading organization: **Center for the development of professional qualification
of medical workers**

The defense of the dissertation will be held on “___” _____ 2025 at “___” at the meeting of the Scholar Council number DSc.2/30.12. 2019.Tar.44.01 at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. (Address: 100170, Mirza Ulughbek Street, 79, Tashkent. The Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Tel. (+998 71) 262-54-61; Fax: (99871) 262-52-77, e-mail: beruni1@uznet.net).

The dissertation is available at the Information resource Centre of library of Oriental Studies Institute of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered No. _____). (Address: 100170, Mirza Ulughbek Street, 79, Tashkent. Tel.: (+998 71) 262-54-61.

The dissertation abstract is delivered “___” _____ 2025.

(Protocol registry No. _____ “___” _____ 2025).

B. A. Abdukhalimov

Chairman of Scientific Council on awarding the scientific degrees, Doctor of historical sciences, professor

F. Dj. Djumaniyazova

Scientific secretary of Scholar Council on awarding the scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) on historical sciences

E. Z. Nuriddinov

Chairman of Scientific seminar under of Scientific Council on awarding the scientific degrees, Doctor of historical sciences, professor

INTRODUCTION

(The abstract of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD))

The relevance and necessity of the topic. The rich scientific heritage of Central Asian scientists is of great importance in the development of world science and culture. The works of Abū ‘Alī ibn Sīnā (980 –1037), who came from this region, also occupy a special place in the history of science. Interest in his works was great during the scientist’s lifetime, and they were reproduced in many copies. His work *Al-Qānūn fi-ṭ-ṭibb* (“The Canon of Medicine”) was taught as a textbook in higher education institutions for several centuries.

In the Middle Ages, apocrypha, that is, works attributed to famous scholars, were widespread in the Muslim East and in Europe. The main reason for this practice was to ensure the widespread distribution of a work or to attract attention to it and make it more popular. One of the scholars who had more than a hundred apocryphal works was Abū ‘Alī Ibn Sīnā. While some of these apocrypha lowered the status of the original author, others served to enrich his scientific heritage as new works in their own right. For this reason, research on the works’ authenticity is necessary to determine the real works of Ibn Sīnā. This paves the way for determining the original ideas and views of the scholar. Scientific research on the issue of apocrypha attributed to Ibn Sīnā is being conducted in the USA, Great Britain, Spain, Canada, Egypt, Russia and Iran. Although the issue of apocrypha is studied in these countries, it is focused on books other than Ibn Sīnā’s medical works. In Uzbekistan, Ibn Sīnā’s medical works have been translated into Uzbek and Russian with scientific commentaries, but his apocryphal works have not been studied. Among these apocryphal works, *Al-Qānūn al-ṣaghīr fi-ṭ-ṭibb* (“The Small Canon of Medicine”) is also attributed to Ibn Sīnā. By comparing it with Ibn Sīnā’s authentic medical works, the author of “The Small Canon of Medicine” can be identified. “The Small Canon of Medicine” gives an idea of the structure and content of medieval medicine in the Islamic world. Therefore, regardless of who its author is, it is appropriate to study it as a scientific work. The study of this work is particularly important because it causes many disputes and debates among scholars in the field of the history of world medicine.

In the new Uzbekistan, the study of the heritage of the great scholars and thinkers from what is today Uzbekistan is crucial for demonstrating their contribution to world science. A significant amount of work has been accomplished: training specialist researchers, improving the activities of organizations that own ancient manuscripts, and translating and studying these manuscripts. In this regard, the identification of the manuscripts of “The Small Canon of Medicine” preserved in the world collections, their study in terms of source studies and the history of science and the resolution of the authorship will ensure the continuation of research in this area in our country.

The task of objectively studying the scientific heritage of scientists is also reflected in the resolutions of the head of state. In particular, this dissertation contributes to the implementation of the following resolutions of the President of

the Republic of Uzbekistan: No. PQ-2595 dated May 24, 2017 “On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources”, No. PQ-126 dated February 10, 2022 “On additional measures to improve the system of preservation and research of ancient written sources”, and No. PQ-4668 dated April 10, 2020 “On additional measures to develop folk medicine in the Republic of Uzbekistan.”

The relevance of the research to the priority areas of the development of science and technology in the Republic. This dissertation was carried out in accordance with the following priority direction related to the republic’s science and technology development: “the formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state.”

The state of scholarship on the problem. The issue of the attribution of the work “The Small Canon Medicine” has not been studied comprehensively in the East and the West to this day. It has only been partially covered in modern catalogs and some articles. This scientific literature is divided into the following three groups.

The first group includes scientific literature in which the author of the work “The Small Canon Medicine” is attributed to Ibn Sīnā. The second group consists of publications in which the authorship of Ibn Sīnā is questioned. The third group consists of scientific literature in which the author of the work is attributed to Ibn Mandawayh.

The scientific literature in the first group can also be divided into two sub-groups. The first is the information in the catalogs, and the second is the publications of the work. In these literatures, without fully studying the style and content of the work, it was concluded that the author of “The Small Canon Medicine” was Ibn Sīnā, based only on the name found in the manuscripts. For example, R. Sheshen recorded “The Small Canon Medicine” in his catalog as a work of Ibn Sīnā under the name *Al-Qānūn al-Aṣghar* (“The Smallest Canon”¹). However, he did not conduct any special research on the attribution of this work and relied only on the mention of the name of the scribe in the title of the manuscript². The first edition of “The Small Canon Medicine” was published by the Egyptian scholar Ahmad Farid al-Mazidi under the title *Al-Qānūn al-ṣaghīr fi-t-ṭibb* (“The Small Canon of Medicine”)³. This edition, which uses two Egyptian manuscripts, lists Ibn Sīnā as the author of the work.

Turkish medical historian Professor Kadircan Keskinbora published a facsimile and Turkish translation⁴ of the manuscript of “The Small Canon

